1. Вежбицкая А. Русская культурная традиция и языковая картина мира. М.: Языки славянской культуры, 2002. 314 с.
2. Маслова В. А. Лингвокультурология: учеб.пособие. М.: Академия, 2001. 208 с.
3. Стернин И. А. Русская коммуникативная культура. Воронеж: Истоки, 2014. 256 с.
4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.
5. Holmes J. Compliments and compliment responses in New Zealand English. Anthropological Linguistics, 1988. № 28. P. 485–508.

6. Chen R. Compliment and compliment response research: A cross-cultural survey. Journal of Pragmatics, 2010. № 42. P. 107–121.

“ÓZBEKSTAN TARIYXI” PÁNIN OQITIWDIŃ PEDAGOGIKALIQ INNOVACIYALIQ TIYKARLARI

Utepbergenova Amangul Kengesbaevana
Qaraqalpaqstan Respubdikası, Nókis qalası, Ózbekstan Mámleketlik kórken óner hám mádeniyat institutı Nókis filialı, tariyx ilimleri boyınsha filosofiya doktori(PhD), docent

“Ózbekstan tariyxı” pánin oqıtıw sistemasında pedagogik texnologiyanıń eń tiykarǵı wazıypası – bul oqıtıwshı hám oqıwshınıń nátiyjege birgelikte erisiwleri ushın tańlanǵan texnologiyalarǵa baylanıslı bolıp qaladı. Yaǵnıy oqıtıw procesinde maqset boyınsha kepillengen nátiyjege erisiwde qollanılatuǵın hár bir bilimlendiriw texnologiyası oqıtıwshı hám oqıwshı ortasında birge islesiwdi júzege shıǵara alsa, ekewide maqsetke erise alsa, oqıw procesinde oqıwshı óz betinshe pikirley alsa, izlense, analiz qılıw, ózleri juwmaqshıǵarıw, ózlerine baha bere alsa, oqıtıwshı bolsa buǵan sharayat jarata alsa – bul oqıtıw procesiniń tiykarı esaplanadı.[1.12]

Pedagogikalıq birge islesiw procesi ózine tán ózgesheliklerine iye bolıp, olarǵa tómendegiler kiredi:

- oqıwshını sabaq barısında dıqqatsız bolmaslıqqa, ǵarezsiz pikirlewge, dóretiwshilikke hám izleniwge májbúr etiw,
- oqıwshınıń bilimge bolǵan qızıǵıwshılıǵın hámiyshe támiyinlep turıw,
- oqıwshı hám oqıtıwshınıń hámiyshe birgelikte islesiwin támiyinlew.

Pedagogik texnologiya pán temaları boyınsha aldınnan joybarlanıwı hám onı oqıtıw barısına kóshirilse, juwmaqlawshı nátiyje menen kepillenedi. Sonıń menen birge hár qanday pedagogik texnologiya tiykarın ilimiy tárepten kórilgen didaktik procesti quraydı.

“Ózbekstan tariyxı” páni temasın ótiw barısında da, házirgi dáwirdegi informaciyalıq texnologiyalardan, bar texnikalıq jetiskenliklerden paydalanıp oqıtıw maqasetke muwapıq keledi.Milliy qádiriyatlarimizǵa baylansılı ilimiy materiallardı, tema boyinısha islengen multimediyalıq hám basqada áhmiyetli máselelerdi jańa pedagogik qurallar arqalı paydalansaq oqıwshılar ushın keń múmkinshilikler jaratıp bergen bolamız.[2.5]

Joqarıdaǵı pikirlerden kelip shıǵıp, Ózbekstan tariyxı pániniń ózine tán ózgesheliklerin esapqa ala otırıp onıń házirgi dáwirdegi insan hám jámiyet rawajlanıwınıń aktual máselelerine baǵıshlanǵan problemalar tiykarında oqıw jumıs baǵdarlamasında kórsetilgen temalar boyınsha tereń hám tıyanaqlı bilim alıw maqsetinde arnawlı sabaq kestesinde kórsetilgen saatlar kóleminde ámelge asırıladı. Oqıwshılardıń pánde kórsetilgen temalar boyınsha erkin pikir júrgiziwi, ideyalar tariyxı, tarixıy xranologik hám tariyxıy waqıya hádiyselerdi analiz qılıw ushın oqıtıwshı tárepinen máslәhátler beriledi.Hár bir úyrenilip atırǵan temanıń hám ondaǵı eń aktul máselelerdiń mánislerin tolıq hám durıs túsiniw usı tiykarıǵı maqsetimiz bolıp esaplanadı.[3.33]

Mámleketimiz ǵárezsizlikke eriskennen soń onıń sociallıq, ekonomikalıq hám mádeniy turmısında túpkilikli ózgerisler júz berdi. Solar qatarı, tálim-tárbiya sistemasın túpten reforma qılıw, onı aldıńǵı mámleket sistemasınan qalǵan ideologiyalıq kóz-qaraslardan tolıq azat etiw, rawajlanǵan demokratik mámleketler dárejesine, joqarı ruwxıy hám tárbiyalıq sıpatlarǵa iye milliy maman kadrlardı tayarlaw máseleleri bilimlendiriw tarawınıń bas maqseti etip qoyıldı hám usı maqsetti ámelge asırıw ushın milliy bilimlendiriw sistemasın jaratıw zárúr edi. Usı sociallıq maqsetti ámelge asırıwda tálim-tarbiya procesi mazmunın jańalawǵa, bilimlendiriw mekemeleriniń materiallıq-texnikalıq bazasın bekkemlewge ayrıqsha itibar qaratıldı hám jańa túrdegi oqıw mekemeleriniń jumıs alıp barılıwı jolǵa qoyılıp, úzliksiz bilimlendiriw sistemasınıń túrli basqıshlarında jumıs alıp barıp atırǵan bilimlendiriw mekemeleri imkaniyatlarınan nátiyjeli paydalanıw ushın dástúrler islep shıǵıldı.[4.11]

Ásirese, bilimlendiriw tarawında dawamlı alıp barılıp atırǵan reformalar jetik bilim beriwge qaratılıwı, bilimlendiriw standartları, oqıw programmaları hám oqıwlıqlarınıń túpten modernizaciya qılınıwı, mámleketimizde bilimlendiriw sistemasınıń aldıńǵı baǵdarı sıpatında itibar qaratılıp atırǵanlıǵınan derek beredi.

Mámleketimizde MBS, oqıw rejesi, dástúr hám oqıwlıqlar, oqıw qollanbalarınıń mazmunın zaman talapları tiykarında túpten jańalanıwı, shaxsqa baǵdarlanǵan bilimlendiriwdiń ámelge asırılıwı, bilimlendiriw procesiniń sociallastırılıwı, bilimlendiriwdiń insanparwarlastırılıwı boyınsha áhmiyetli máseleleri Ózbekstan tariyxı páni aldına qatar wazıypalardı júkledi.[5.3]

Demek, jámiyetti modernizaciyalaw sharayatında jańa pedagogik hám axborot texnologiyalarınan nátiyjeli paydalanıw hámde zaman talaplarına juwap beretuǵın bilimlendiriw procesiniń mazmunın jańalaw, bilimlendiriw sistemasınıń rawajlanıwın belgileydi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. B.Xodiev, L.Golish, D.Xashimova “Óz betishe oqıw xızmetin shólkemlestiriwdiń usıl hám quralları” Nókis-2012j
2. Tolipov U.Q, Usmonberdieva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” óquv qollanma. T. “Fan”, 2006.
3. Yuldoshev J.F., Usmonov S.A. “Pedagogik texnologiya asoslari”-T.2004.
4. Rahmonova E.R., Razzoqov D.N. “Pedagogik texnologiyalar” fanidan óquv qóllanma. T.2007.
5. Yuldoshev J.F., Xasanov S. “Pedagogik texnologiyalar”-T. Óquv qóllanma. T.200
6. S.T.Maxkamov. «O`zbekstan tariyxı». 8-klasslar oqıtıwshılar ushın metodikalıq qollanba. Tashkent, 2006 j.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА

Кабулова Мехрибан Толыбаевна
Республика Каракалпакстан, г. Нукус,доктор педагогических наук (PhD), и.о. доцентаНукусского филиала ГИИКУз.

В условиях глобализации и активных интеграционных процессов русский язык продолжает играть важную роль в образовательном и культурном пространстве Узбекистана. Современная система высшего образования ориентирована на подготовку конкурентоспособных специалистов, обладающих высоким уровнем языковой и коммуникативной компетенции. В этой связи актуальной становится проблема внедрения инновационных методов преподавания русского языка, отвечающих требованиям времени и потребностям студентов.

Целью данной статьи является анализ современных инновационных методов преподавания русского языка в вузах Узбекистана и выявление их эффективности в образовательном процессе.

Традиции и современные тенденции преподавания русского языка

Преподавание русского языка в вузах Узбекистана опирается на богатые традиции, включающие системно-грамматический и текстоцентрический подходы. Однако в современных условиях данные методы нуждаются в обновлении и дополнении инновационными технологиями, ориентированными на активную роль обучающегося.

Современные тенденции предполагают переход от репродуктивного обучения к личностно-ориентированному и коммуникативному, где студент становится активным участником образовательного процесса.

Инновационные методы преподавания русского языка

К числу наиболее эффективных инновационных методов относятся:

- **Использование цифровых технологий** (онлайн-платформы, мультимедийные ресурсы, электронные учебники), которые расширяют возможности самостоятельной работы студентов.
- **Интерактивные методы обучения** (дискуссии, ролевые игры, кейс-методы), способствующие развитию устной речи и критического мышления.
- **Проектное обучение**, направленное на формирование практических навыков и умения работать в команде.
- **Смешанное обучение**, сочетающее традиционные формы занятий с дистанционными элементами.

Применение данных методов повышает мотивацию студентов к изучению русского языка и способствует более глубокому усвоению учебного материала.

Таким образом, инновационные методы преподавания русского языка в вузах Узбекистана являются важным фактором повышения качества образования. Их внедрение позволяет не только сохранить традиции

преподавания, но и адаптировать образовательный процесс к современным требованиям. Использование цифровых, интерактивных и коммуникативных технологий способствует развитию языковой личности студента и укреплению культурного диалога.

Использованная литература:

1. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М., 2018.
2. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М., 2019.
3. Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М., 2020.
4. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М., 2021.
5. Ходжиева Н.Р. Современные подходы к обучению русскому языку в вузах Узбекистана // Вестник образования. – 2022.

MILLIY PEDAGOGIK AN'ANALAR VA PISA STANDARTLARI: ZIDDIYAT YOKI IMKONIYAT

Rahimova Dildora Qodirjonovna

Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent, Pedagogika va psixologiya kafedrasi, University of Business and Science

XXI asrda ta’lim tizimlariga globallashuv va raqamli transformatsiya bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda milliy hududlarda shakllangan ta’lim modellari endi faqat ichki baholash mezonlari bilan emas, balki xalqaro ko‘rsatkichlar bilan ham o‘lchanmoqda. PISA (Programme for International Student Assessment)-bu OECD tomonidan 2000 yildan beri amalga oshirilib kelayotgan, 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematik va tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini hayotiy vaziyatlar kontekstida baholashga yo‘naltirilgan dastur. Dasturda 2022 yilgi tsiklda 80 dan ortiq mamlakat qatnashgan bo‘lib, u ta’lim tizimlari samaradorligini taqqoslashning eng obro‘li xalqaro vositasiga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi 2023 yildan boshlab PISA baholash dasturiga rasman kirishdi. Bu qadam mamlakatning ta’limga bo‘lgan strategik yondashuvini xalqaro miqyosga olib chiqishda muhim deb qaralmoqda. Biroq ushbu integratsiya oddiy texnik jarayon emas-u milliy pedagogik an'analar, mentalitet va ta’lim falsafasi bilan bog‘liq chuqur savollarni ko‘ndalang qo‘yadi. Xususan: milliy pedagogik meros xalqaro standartlarga to‘sqinlik qiladimi yoki ular bir-birini to‘ldirishga qodirmi?

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi bir necha jihatdan namoyon bo‘ladi. Birinchidan, O‘zbekistonda PISA’ga qatnashish yangi hodisa bo‘lib, uning milliy pedagogika bilan munosabatini ilmiy tahlil qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ikkinchidan, ta’lim islohoti davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2030 yillar uchun ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi) bu masalani amaliy ahamiyatga ko‘taradi. Uchinchidan,

xalqaro adabiyotda Markaziy Osiyo kontekstiga mo‘ljallangan empirik tadqiqotlar hali yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi-milliy pedagogik an'analar va PISA standartlari o‘rtasidagi munosabatni qiyosiy tahlil qilish, uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqotda quyidagi vazifalar hal etildi: milliy pedagogik an'analarning asosiy xususiyatlarini aniqlash; PISA metodologiyasini tahlil qilish; ikki yondashuv o‘rtasidagi mos va zid tomonlarni qiyoslab o‘rganish; samarali integratsiya modellarini tavsiya qilish.

PISA dasturi va milliy ta’lim tizimlari o‘rtasidagi munosabat xalqaro miqyosda keng o‘rganilgan mavzu hisoblanadi. OECD bosh ma’ruzachisi Andreas Schleicher (2018) ta’limda xalqaro baholashni millatlararo raqobat emas, balki o‘zaro o‘rganish va takomillashtirish vositasi sifatida ko‘rishni taklif qiladi. Uning yondashuviga ko‘ra, PISA natijalari mamlakatlar o‘rtasida nafaqat farqlarni, balki eng avvalo muvaffaqiyatli amaliyotlarni bo‘lishish uchun platformadir. Bu fikr milliy an'analarni butunlay rad etish zarurati yo‘qligini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo ta’lim tizimlari kontekstida Silova va Steiner-Khamsi (2008) muhim kuzatuv qiladilar: post-sovet makonida ta’lim islohotlari ko‘pincha "transfer"-ya’ni g‘arb modellarini mexanik ko‘chirish shaklida amalga oshiriladi. Ular bunday yondashuv samarasiz ekanini empirik ma’lumotlar asosida isbotlaydilar. O‘zbekiston ta’lim tizimi ham ushbu muammoga duch kelmoqda: bir tomondan milliy identitet va sovet davri meros, ikkinchi tomondan global islohot bosimi o‘rtasidagi kuchlanish davom etmoqda.

Xan va Lo (2016) Konfutsiy pedagogikasi an'anasiga ega Sharqiy Osiyo mamlakatlarida-Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya-PISA natijalari yuqori bo‘lganini tahlil qilib, bu mamlakatlar milliy pedagogik qadriyatlarini (intizom, kollektiv mas'uliyat, bilimga chuqur hurmat) PISA talab qiladigan tanqidiy fikrlash bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lganini ko‘rsatadilar. Bu O‘zbekiston uchun ham istiqbolli model sifatida qaralishi mumkin.

Finn va Janeli (2020) Sharq pedagogikasidagi yaxlit insonni tarbiyalash g‘oyasi bilan G‘arb individualizmiga asoslangan PISA mezonlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikni tahlil qiladilar. Ular ushbu munosabatni dialektik-ya’ni bir-birini inkor emas, balki to‘ldiruvchi-deb baholaydilar. Shuningdek, Kim (2019) ijtimoiy-ma’naviy asosga ega o‘quvchilar zamonaviy kompetensiyalarni ham tezroq egallashini empirik tadqiqot orqali ko‘rsatadi. Mahalliy adabiyotda Xo‘jayev va Toshmatov (2022) o‘zbek milliy pedagogikasining zamonaviy ta’limdagi o‘rnini o‘rganib, an'anaviy yondashuvning zamonaviy talablar bilan birgalikda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jihatlarini belgilab beradilar.

Ushbu tadqiqot metodologik jihatdan bir necha yondashuvga tayanadi. Birinchidan, tizimli adabiyotlar tahlili metodi qo‘llanilib, o‘zbek va xorijiy manbalar-ilmiy maqolalar, monografiyalar, davlat hujjatlari, OECD hisobotlari-tanqidiy o‘rganildi. Ikkinchidan, qiyosiy-tahliliy metod orqali O‘zbekiston milliy ta’lim tizimining PISA baholash metodologiyasi tamoyillari bilan muvofiqligi aniqlandi.

Uchinchidan, PISA 2022 natijalarining mintaqaviy va global ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanishi statistik tahlil asosida amalga oshirildi. To‘rtinchidan, ta’lim

sohasidagi 12 nafar amaliyotchi mutaxassis (maktab direktori, o‘qituvchi va metodist) bilan yarim tuzilmali intervyu o‘tkazildi. Intervyular 2025 yil fevral–mart oylarida Toshkent va Samarqand shaharlarida yuzma-yuz shaklida o‘tkazildi. Natijalar tematik kodlash usulida qayta ishlandi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi sifatida quyidagilar qayd etiladi: keng qamrovli miqdoriy so‘rov o‘tkazilmaganlik, namuna geografik jihatdan ikkita shaharga cheklanganligi va intervyu natijalarining subyektiv talqinga moyilligi. Kelajak tadqiqotlarda eksperimental metod va keng namunali miqdoriy usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘zbek milliy pedagogikasi bir necha asrlik boy tarixga ega bo‘lib, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Beruniy, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy kabi qomusiy allomalar merosiga tayanadi. Ushbu an'anada bilim-faqat aqliy boylik emas, balki insonni kamolotga yetkazuvchi ma’naviy vositadir. O‘qituvchi (ustoz) shaxsiyati va u bilan munosabat ta’lim jarayonining markazida turadi. Bu o‘quvchining motivatsiyasi, o‘zini anglashi va ijtimoiy javobgarligi shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Milliy pedagogik an'anada jamoa (mahalla, sinf, oila) ruhida o‘qitish, o‘zaro yordam va birgalikda bilim olish muhit sifatida qaralgan. Zamonaviy pedagogika fani esa aynan ushbu yondashuvning-kooperativ o‘qitish modelining-funksional savodxonlikni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Bu esa milliy an'ana va xalqaro standart talablari o‘rtasida bevosita hamohanglik mavjudligini ko‘rsatadi.

Intervyu ma’lumotlariga ko‘ra, so‘ralgan o‘qituvchilarning 83 foizi milliy pedagogik yondashuvni saqlab qolish muhim deb hisoblaydi va ularning aksariyati bu an'analarni zamonaviy metodlar bilan birgalikda qo‘llash mumkinligiga ishonadi. Bu natija milliy o‘qituvchi kadrlarning islohot uchun potensialini ko‘rsatib beradi.

PISA baholashi uch asosiy sohani-o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni-o‘quvchining bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi nuqtai nazaridan o‘lchaydi. Bu yondashuv an'anaviy memorativ (yod olishga asoslangan) ta’lim usullari bilan bog‘liq bir qancha tizimli muammolarni yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schleicher, A. (2018). World Class: How to Build a 21st-Century School System. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264300002-en
2. Silova, I., & Steiner-Khamsi, G. (Eds.). (2008). How NGOs React: Globalization and Education Reform in the Caucasus, Central Asia and Mongolia. Kumarian Press.
3. OECD. (2023). PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/53f23881-en
4. Finn, C., & Janeli, R. (2020). Eastern Pedagogical Traditions and Western Assessment Models: Bridging the Gap. Journal of Comparative Education, 56(3), 112–131.
5. Kim, J. (2019). Confucian Heritage and 21st Century Skills: Exploring Compatibility in East Asian Education Systems. Asian Education and Development Studies, 8(2), 220–235.

6. Xan, H., & Lo, M. L. (2016). High Achievement in East Asian PISA Participants: Cultural Capital, Learning Practices and Pedagogical Traditions. Comparative Education Review, 60(4), 781–809.
7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2017). Cooperative Learning: The Foundation for Active Learning. IntechOpen. https://doi.org/10.5772/intechopen.71042
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta’lim to‘g‘risida"gi 2020 yil 23 sentyabrdagi PQ-4884-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2030 yillar uchun ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi PF-5712-son Farmoni. (2019).
10. Xo‘jayev, B. X., & Toshmatov, A. N. (2022). O‘zbek milliy pedagogikasining zamonaviy ta’limdagi o‘rni. Pedagogika va psixologiya, 4(1), 45–58.
11. Rahmonov, D. A. (2021). Kompetensiyaviy yondashuv: milliy ta’lim standartlari va xalqaro tajriba. Ta’lim va innovatsiya, 3(2), 67–79.

ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ ДОСТОНЛАРИНИ ЎҚИТИШ

Юсупов Исламбек Конысбаевич
Қорақалпогистон, Нукус, Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, Бердақ номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейининг етакчи мутахассиси

Алишер Навоийнинг ўқитишда унинг ҳаёт йўлини ўрганиш энг муҳим методик масалалардан саналади. Бу масала бўйича Қ.Юлдашев, А.Пахрадинов, С.Матжанов, Қ.Хусанбоева, К.А Юсупов каби олимларнинг тадқиқотларида зарур методик тавсиялар тақдим этилган. [1]

Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», «Сабъайи сайер», «Ҳайрат ул-аброр», «Лайли ва Мажнун» достонларини ўқитиш методикасида бадиий асар устида ишлаш босқичлари, таҳлилнинг ўзига хослиги, муаллиф шахсиятини у яратган асари билан боғлиқ ҳолда ўрганиш талаб этилади. Ўқув таҳлили орқали ўқувчилар Алишер Навоийнинг асарларининг ғоявий мазмуни, образлари ва жанрий сифатлари, таҳлилнинг етакчи тамойиллари билан таништирилиши зарур. Алишер Навоийнинг бадиий асарлар мавзуси, ғояси, замон ва макон руҳи, давр муҳити, ижтимоий муносабатлар, унинг маҳорати ва услубини таҳлил жараёнида эътибордан четда қолдирмаслик керак.

Алишер Навоийнинг эпик турдаги асарлар дастурда кўрсатилган соатлар ҳажмига мувофиқ ўрганилиши, шунингдек, насрий асарларнинг қуйидаги талаблар асосида таҳлил қилиниши мақсадга мувофиқ:

– Алишер Навоийнинг насрий асарлар бўйича ўқувчиларнинг илмий фикрлашини ривожлантириш;

– насрий асарларда тасвирланган даврнинг характерли белгиларини ўргатиш;

– қаҳрамонлар табиати, руҳияти ва ички дунёсидаги ўзига хосликни таҳлил қилиш.

Таҳлил жараёнида адабиётда шакл ва мазмун бирлиги, Алишер Навоийнинг бадиий асарнинг жанр хусусиятларини ўзлаштириш, асосий муаммони аниқлаш, сюжет, композиция элементлари, образлар олами ва бадиийлик, ғоявий аҳамияти юзасидан ўқувчиларда зарур билим ва кўникмалар шакллантирилиб борилади. Шунингдек, асар мавзуси ва ғояси, сюжети, композицияси ва қаҳрамонлари, тили ва поэтикаси, тарбиявий аҳамиятига эътибор қаратилади.

Ўзбек адабиёти ўқув дастурида берилган Алишер Навоийнинг достонларини ўқувчиларга ўргатиш муҳим методик масалалардан биридир. Шу боис бадиий асар мазмуни ва унинг ғоявий йўналишини билиш, асар сюжетини аниқлаш, қаҳрамонларнинг характер хусусиятларини тушуниш, тўлиқ ёритиш, уларнинг ташқи ва ички портретини тасвирлаш, пейзаж, бадиий деталларни ажрата билиш, образлар тизимини аниқлаш, асар композициясини очиб бериш масаласига эътибор қаратилиши керак. Бунда, биринчидан, ўқувчилар Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», «Сабъайи сайер», «Ҳайрат ул-аброр», «Лайли ва Мажнун»достонларининг бадиийлиги, эстетик даражаси, воқеалар теранлиги, эпик турда баён қилинишини тушуниши, тарихий шароит, қаҳрамонлар психологияси ҳақида тасаввурга эга бўлиши назарда тутилади. Иккинчидан, Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», «Сабъайи сайер», «Ҳайрат ул-аброр», «Лайли ва Мажнун»достонларини, насрий асарларини қизиқиш билан ўқишга ҳаракат қилади. Қаҳрамонлар образининг таъсирчанлиги ёш авлод тарбиясига ижобий таъсир кўрсатади. Учинчидан, насрий асарларни таҳлил қилиш орқали ўқувчиларнинг бадиий асар сюжети, образларнинг характер хусусиятларига доир билимлари кенгайиб боради. Бу эса, ўз навбатида, ўқувчиларнинг нутқи ривожланиши, луғат бойлиги, халқ тарихига оид тушунчалари ортиши, бадиий-эстетик тафаккури юксалишига замин яратади.

Алишер Навоийнинг ўқитишда унинг ҳаёт йўлини ўрганиш энг муҳим методик масалалардан саналади. Бу масала бўйича Н.Ю.Посталюк, Л.Б.Хван, Ф.Исҳоқов, Қ.Юсупов, И.Мамбетов каби олимларнинг тадқиқотларида зарур методик тавсиялар тақдим этилган.

Ўзбек адабиёти ўқув дастурида Алишер Навоийнинг таржимаи ҳолига оид материаллар анчагина. Ҳар бир унинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш унинг асарларига изоҳ ёки кириш сифатида қаралади. Ўқувчилар Алишер Навоийнинг ҳасби ҳолини ўрганиш орқали унинг Ватан ва халқ олдидаги хизматлари, инсонийлигини баҳолаш имкониятига эга бўладилар. Шу жиҳатдан ёзувчи таржимаи ҳоли ўрганилганда унинг тарбиявий хусусиятига эътибор қаратилиши ўқувчида муаллиф шахсига хос муҳим жиҳатларнинг кашф қилинишига шарт-шароит яратади. Алишер Навоийнинг таржимаи ҳолини тушунтиришда давр ҳақиқати, туғилиб ўсган, тарбия олган муҳит ва ижтимоий муносабатлар тўғрисидаги қизиқарли ва муҳим маълумотлар танланиши мақсадга мувофиқ.

Алишер Навоийнинг ижодкор таржимаи ҳолини ўқитишда унинг ҳаётидан бериладиган қисқача тавсиф, умр йўли тўғрисида ҳикоя ва қисқача очерк, замондошларининг хотиралари қамраб олинади. Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижод йўли, асарларининг ғоявий-бадиий тавсифини изоҳлаш, тарихий адабий масалаларни ёритиш етакчи ўрин эгаллайди.

Адабиёт дарсларида Алишер Навоийнинг таржимаи ҳолини ўқитишда ҳар бир ижодкорнинг такрорланмас индивидлиги, ички дунёси, ижод жараёнидаги психологик кечинмаларининг бир-бирига ҳеч ўхшамаслиги ўқувчиларда қизиқиш ҳосил қилади. Шу сабабдан машҳур адабиётшунослар З.Қабдолов, Қ.Йўлдошев, К.Мамбетов, Қ.Камалов, А.Пахратдинов, К.Алламбергенов, Қ.Оразимбетов ва бошқаларнинг ишларида бу жиҳатлар алоҳида қайд этилган. Адабиётшунос З.Қабдолов ўз тадқиқотларида ёзувчиларнинг ижод жараёнидаги ҳолатлари билан боғлиқ кўпгина қизиқарли ва сирли фактларни келтиради. Жумладан, таниқли ёзувчи Э.Хемингуэй кўкрагигача келадиган кафедра-минбар олдида туриб ёзмаса иши юришмаганлиги; баъзи адиблар ерда узунасига ётиб ёзганлиги, яна бошқалари уйидан қочиб саёҳатда ёки ижод уйларида асар яратганлиги маълум бўлса; айримларининг ўз уйлари, ўз столидан бошқа жойда иши юришмаслиги қайд этилганлиги маълум. Буларнинг барчасини ўқувчиларга таъсирли тарзда етказиш ўқитувчининг тажрибаси ва маҳоратига боғлиқ. Натижада Алишер Навоийнинг ижодини ўрганиш орқали ўқувчиларда ўзини ўзи тарбиялаш, умуминсонийлик, ҳалоллик, меҳнатсеварлик, қийинчиликлардан қўрқмаслик каби сифатлар шакллана боради.

Алишер Навоийнинг ижоди бўйича дарсдан ташқари машғулотларни ташкил этиш мазмуни методик жиҳатдан таҳлил қилинган. Бунда адабиёт ўқув дастуридан ўрин олган материалларга дарс соатларининг етарли эмаслиги айрим адабий материалларни дарсдан ташқари машғулотлар орқали ўрганиш мақсадга мувофиқлиги ёритиб берилган. Бу масала бўйича С.Матжонов, Қ.Ҳусанбоева, Т.Р.Ниязметова, М.Мирқосимова, Сафо Очил, А.Абдураззоқов, И.Калмиковаларнинг тадқиқот ишларида ўқувчиларнинг билим даражаларини дарсдан ташқари машғулотларда ошириш ва бу турдаги машғулотларни ташкил этишнинг мазмун-моҳиятига эътибор қаратилган.

Ўзбек адабиёти бўйича дарсдан ташқари машғулотлар мазмуни ва мақсадига кўра бир неча турларга бўлинади. Дарсдан ташқари машғулотлар С.Долимов, А.Пахратдинов, Қ.Йўлдошев, Б.Тўхлиев каби олимларнинг илмий ишларида бошқача нуқтаи назардан талқин қилинган.

Алишер Навоийнинг ижоди бўйича кўргазмали бурчаклар, адабий саёҳатлар, адабий журнал ва газеталар, адабий конференциялар шаклидаги дарсдан ташқари ишлар ўқувчиларнинг маънавий фазилатлари юксалиши ҳамда билим даражалари ортишига хизмат қилади. Ўқувчилар адабиёт бўйича ўтказиладиган дарсдан ташқари машғулотларда халқ оғзаки ижоди, қадим даврдаги қорақалпоқ адабиёти тарихи, XVIII аср қорақалпоқ адабиёти, XIX аср қорақалпоқ адабиёти, XX аср қорақалпоқ адабиёти ва XXI аср қорақалпоқ адабиётига оид адабий материалларни ўрганишлари керак. Ушбу боб мазмунида адабиётга доир тўгарак ишларини ташкил этиш ва уларни ўтказиш,

ишнинг мазмуни ва вазифалари ҳақида соҳа мутахассисларининг методик қарашларига муносабат билдирилган. Хусусан, С.Долимов, Х.Убайдуллаев, Қ.Йўлдошев, О.Мадаев, А.Абдуразоқовлар Қ.Аҳмедовларнинг адабий ўқув материалларини ўрганишда самарали бўлган адабий-ижодий, драматик, ифодали ўқиш ва бадиий ҳикоя қилиш, адабий-ўлкашунослик тўгаракларини ташкил этишга доир фикрларидан фойдаланиш йўллари кўрсатилган.

Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», «Сабъайи сайер», «Ҳайрат ул-аброр», «Лайли ва Мажнун»достонлари бўйича ўтказиладиган тўгарак ишларини бошқача усулларда гуруҳларга ажратиш мумкин: 1. Эпик тўгарак. 2. Лирик тўгарак. Гуруҳларга кўра ажратиладиган тўгарак ишларини адабий тўгарак; ифодали ўқиш тўгараги; фольклор бўйича ўтказиладиган тўгарак ишлари; Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», «Сабъайи сайер», «Ҳайрат ул-аброр», «Лайли ва Мажнун»достонларига оид ўтказиладиган тўгарак ишлари.

Ўқувчиларнинг Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», «Сабъайи сайер», «Ҳайрат ул-аброр», «Лайли ва Мажнун»достонларига бўлган қизиқишларини орттириш мақсадида дарсдан ташқари машғулотларнинг ҳали кенг тадқиқ қилинмаган тури кўргазмали бурчак ҳисобланади. Кўргазмали бурчакни ташкил этишдан мақсад ўқувчиларининг қорақалпоқ адабиёти фанига бўлган қизиқишларини оширишдир. Мазкур жараёнда ўқувчиларга тавсия қилинган асарларни қайта ўқиб келиш, ёзувчи-шоирлар ижодига оид альбомлар яратиш, бадиий асарлар мазмуни асосида турли кўринишдаги расмлар чизиш вазифалари юклатилади. Бундай мазмундаги ишлар адабиёт ўқитувчисининг раҳбарлигида амалга оширилади. Кўргазмали бурчак ташкил этилиши адабиёт ўқитувчисининг дастур материаллари билан тўлиқ таниш бўлишини, ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олишини, эҳтиёж ва қизиқишларидан келиб чиққан ҳолда иш тутишини тақозо этади.

Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», «Сабъайи сайер», «Ҳайрат ул-аброр», «Лайли ва Мажнун» достонлари бўйича бажарилган топшириқлар нафақат ўқувчиларнинг иқтидор ва интилишларини намоён қилиши, балки кўргазмали қурол вазифасини бажаришга ҳам хизмат қилади. Кўргазмали бурчак адабиёт хонасининг безатилиши ва кўргазмали қуроллар билан бойишига зарур шароит яратади. Адабиёт ўқитувчиларининг бундай турдаги ишларни дарс жараёнида эмас, балки дарсдан ташқари вақтларда ҳам тез-тез ўтказиб туишлари мақсадга мувофиқ. Дарсдан ташқари машғулотларда ўқувчилар томонидан тайёрланадиган деворий газета ва журналлар мактаб ҳаёти, адабий янгиликлар, турли мавзулардаги мақолалар, ҳикоялар, шеърлар тўғрисида маълумот берадиган адабий ижодий марказ ҳисобланади.

Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», «Сабъайи сайер», «Ҳайрат ул-аброр», «Лайли ва Мажнун»достонлари бўйича кўргазмали бурчаклар ўқувчиларнинг изланувчанлиги ва эстетик туйғуларига ижобий таъсир кўрсатса, деворий газета ва журналлар ёзма нутқи, ижодий қобилиятини ривожлантиришга ёрдам беради. Адабий кечани ўтказиш давомида ёзувчи ҳаёти ва ижоди ҳақидаги маълумотлар мультимедиа воситалари орқали етказилса, ўқувчиларда мавзуга нисбатан қизиқиш кучаяди. Адабий саёҳатлар

ташкил этиш орқали ўқув-тарбиявий ишларнинг мазмуни янада такомиллаштирилади.

Қорақалпоқ адабиёти хонасидаги Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин», «Сабъайи сайер», «Ҳайрат ул-аброр», «Лайли ва Мажнун»достонлари, материаллар мазмуни, савияси ва эстетикаси дарс, дарсдан ташқари машғулотлар ҳамда факультатив дарсларнинг самарасини таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Юлдашев Қ., Юлдашева М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: КАМАЛАК, 2016, - стр 461.
2. Пахрадинов А. Методика преподавания каракалпакской литературы - Нукус: Билим, 2004.
3. Матжанов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. -Т:. Ўқитувчи, 1996.
4. Хусанбоева Қ., Ниёзметова Р. Методика преподавания литературы. –Т:. Баркамал файз мадиа, 2018. - стр. 352
5. Юсупов К.А. Методика преподавания каракалпакской литературы. – Ташкент: Сано-стандарт, 2018. Стр.336. Методика преподавания каракалпакской литературы в академических лицеях. (монография). – Нукус: Каракалпакстан, 2019. -Стр. 112;

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA AN'ANAVIY O'QITISH USULLARINI. XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH MUAMMOLARI

Rahimova Dildora Qodirjonovna
Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent, Pedagogika va psixologiya kafedrasi,University of Business and Science

Ta'lim tizimlarining globallashuvi va raqamli transformatsiyasi kontekstida har bir davlat o'z ta'lim modelini xalqaro miqyosda baholash va taqqoslash zaruratiga duch kelmoqda. O'quvchi natijalarini o'lchashga mo'ljallangan xalqaro dasturlar — PISA, TIMSS, PIRLS — bugungi kunda milliy ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu dasturlar ta'lim sifatini nafaqat bilim hajmi, balki bilimni hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyati — kompetensiyalar — bilan o'lchaydi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini isloh qilish yo'lida jiddiy qadamlar qo'ymoqda. 2017–2021 yillardagi Harakatlar strategiyasi, 2022–2026 yillardagi Taraqqiyot strategiyasi va 2019–2030 yillar uchun ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi — bularning barchasi ta'limda sifat o'zgarishlarini ta'minlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab bergan. 2023 yildan PISA baholashiga birinchi marta qatnashish esa ushbu jarayonning yangi bosqichini ifodalaydi.

Shu bilan birga, milliy ta'lim tizimida an'anaviy o'qitish usullari hanuz ustunlik qilmoqda. Memorativ o'qitish, o'qituvchini bilimning yagona manbai sifatida ko'ruvchi autoritariv yondashuv, rasmiy imtihonlarga asoslangan baholash

madaniyati — bularning barchasi xalqaro standartlar talab qiladigan o'quvchini markazga qo'yuvchi, kreativlik va mustaqil fikrlashni rag'batlantiradigan o'qitish paradigmasi bilan qarama-qarshi turadi. Ushbu qarama-qarshilik ta'lim islohotining asosiy chiqindilaridan birini tashkil etmoqda.

Maqolaning dolzarbligi bir necha jihatda namoyon bo'ladi: birinchidan, O'zbekiston birinchi marta PISA natijalarini qo'lga kiritib, ularni milliy kontekstda tahlil qilish zarurati vujudga keldi; ikkinchidan, an'anaviy o'qitish usullari va xalqaro standartlar orasidagi ziddiyatlar tizimli xususiyatga ega bo'lib, ularni hal etmay turib ta'lim sifatini oshirish mumkin emas; uchinchidan, ushbu masala O'zbekiston kontekstida hali etarlicha ilmiy tadqiq qilinmagan. Maqolaning maqsadi — an'anaviy va xalqaro yondashuvlar o'rtasidagi asosiy tafovutlarni aniqlash, muammolarning ildizlarini tahlil qilish va uyg'unlashtirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

An'anaviy o'qitish usullarini modernizatsiya qilish masalasi xalqaro adabiyotda keng o'rganilgan. Frenkel va Wallen (2019) an'anaviy ta'limning asosiy xususiyatlarini quyidagicha tavsiflaydilar: o'qituvchi markaziy rol o'ynaydi, bilim bir tomonlama uzatiladi, o'quvchi passiv qabul qiluvchi sifatida ko'riladi va baholash asosan summativ xususiyatga ega bo'ladi. Bu xususiyatlar zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim paradigmasi bilan keskin tafovut qiladi.

Bloom va boshqalar (1956) tomonidan ishlab chiqilgan va Anderson hamda Krathwohl (2001) tomonidan yangilangan taksonomiya ta'lim maqsadlarini bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratish darajalariga ajratadi. An'anaviy tizimda asosan birinchi ikki daraja — bilish va tushunish — ustunlik qiladi, holbuki PISA baholashi uchinchi darajadan yuqorini — bilimni yangi kontekstda qo'llash va masalani hal qilishni — talab qiladi. Bu fundamental metodologik tafovutni Schleicher (2018) ham ta'kidlaydi.

Post-sovet makonidagi ta'lim islohotlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda (Silova, 2009; Bridges va boshqalar, 2014) umumiy tendentsiya sifatida quyidagi holat qayd etiladi: rasmiy islohot hujjatlari kompetensiyaviy yondashuvni e'lon qilsa-da, sinf xonasidagi amaliyot an'anaviy tarzda davom etmoqda. Bu holat «qog'oz islohoti» (paper reform) deb atalib, xalqaro adabiyotda ko'plab mamlakatlarda, jumladan Markaziy Osiyo davlatlarida ham qayd etilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda Toshmatov O'zbekiston maktablarida o'qituvchilarning 70 foizidan ortig'i kompetensiyaviy yondashuv haqida eshitgan, biroq uni amaliyotda qo'llay olmasligini ko'rsatadi. Mirzayev (2021) esa o'quv dasturlarining hali ham bilim hajmiga yo'naltirilganligini va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradigan topshiriqlar ulushining o'ta kamligini aniqlagan.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi to'rtta asosiy komponentdan iborat. Birinchi komponent — tizimli adabiyotlar tahlili (systematic literature review): 2010–2025 yillar oralig'ida chop etilgan o'zbek tilidagi va xorijiy ilmiy maqolalar, monografiyalar, OECD va UNESCO hisobotlari, O'zbekiston Respublikasining ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlari o'rganildi. Jami 68 ta manba ko'rib chiqilib, ulardan 42 tasi tadqiqot uchun asos qilib olindi.

Ikkinchi komponent — qiyosiy tahlil metodi: O'zbekiston milliy o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlari PISA, TIMSS va UNESCO 2030 ta'lim

maqsadlari bilan solishtirma o'rganildi. Taqqoslash uchun maxsus tahlil matritsasi ishlab chiqilib, metodologik, maqsadiy va baholash mezonlari bo'yicha solishtirishlar amalga oshirildi.

Uchinchi komponent — yarim tuzilmali intervyu: 2025 yil mart–may oylarida Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida 18 nafar amaliyotchi mutaxassis bilan suhbatlar o'tkazildi. Ular orasida umumta'lim maktabi o'qituvchilari (9 nafar), maktab direktori va o'quv ishlari bo'yicha direktorlar (5 nafar), ta'lim metodistlari (4 nafar) bor edi. Intervyular ovozga yozib olinib, so'ngra transkripsiya qilingan va tematik kodlash usulida tahlil qilingan.

To'rtinchi komponent — hujjatlar tahlili: O'zbekiston ta'lim vazirligi tomonidan 2021–2025 yillarda tasdiqlangan o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va baholash mezonlari o'rganildi. Tadqiqotning asosiy cheklovlari: namuna geografik jihatdan uchta viloyat bilan cheklanganligi, eksperimental metod qo'llanilmaganligi va o'quvchilar nuqtai nazarining bevosita o'rganilmaganligi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston umumta'lim maktablarida an'anaviy o'qitish usullari to'rtta asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi. Birinchisi — bilimni uzatish paradigmasi (transmission paradigm): darsning asosiy qismi o'qituvchining og'zaki tushuntirishidan, o'quvchining esa tinglash va yozib olishdan iborat bo'ladi. So'ralgan o'qituvchilarning 78 foizi o'z darslarida ma'ruza va namoyish usullaridan asosiy metod sifatida foydalanishini bildirdi. Bu holat o'quvchida passiv o'zlashtirish ko'nikmasi shakllanishiga olib keladi.

Ikkinchi xususiyat — memorativ baholash madaniyati: o'quv yili yakunida o'tkaziladigan summativ imtihonlar va nazorat ishlarida asosan matn yoki formulalarni to'g'ri eslash, belgilangan namunaga muvofiq yechim tuzish talab qilinadi. Tanqidiy fikrlash, muammoni turli yo'llar bilan yechish yoki argumentatsiya ko'nikmalari baholash mezonlarida deyarli aks ettirilmagan. Bu holat o'quvchilarni «imtihon uchun o'qish»ga undaydi va chuqur tushunish o'rniga yuzaki yod olishni shakllantiradi.

Uchinchi xususiyat — markazlashgan o'quv dasturi: maktablar davlat tomonidan tasdiqlangan bir xil o'quv rejasi va darslik asosida ish olib boradi. O'qituvchining o'quv jarayonini o'quvchilar ehtiyoji va mahalliy kontekstga moslashtirish imkoniyati cheklangan. Intervyuda qatnashgan o'qituvchilarning 89 foizi darslikdan chetga chiqish imkoniyati yo'qligini, 61 foizi esa qo'shimcha manbalardan foydalanishga vaqt yetishmasligini qayd etdi.

To'rtinchi xususiyat — o'qituvchining autoritariv roli: milliy madaniy kontekstda o'qituvchi bilimning asosiy manbai va qaror qiluvchi avtoritet sifatida ko'riladi. Bu raqiblarik muhit o'quvchida savol berish, taxminlarni tekshirish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish kabi ko'nikmalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu madaniy omil tashqi baholashlar orqali o'lchab bo'lmaydigan, lekin ta'lim samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan omildir.

Qiyosiy tahlil natijasida milliy ta'lim tizimi bilan PISA va boshqa xalqaro standartlar o'rtasida to'rtta asosiy tafovut aniqlanadi. Birinchi tafovut — ta'lim maqsadlari darajasida: milliy standartlar asosan fan bo'yicha bilim va ko'nikmalar ro'yxatini belgilasa, xalqaro standartlar o'quvchinin hayotiy kompetensiyalar —

axborotni tahlil qilish, dalillarga asoslangan fikr yuritish, nostandart muammolarni yechish — shakllanishini ta'lim maqsadi sifatida belgilaydi.

Milliy amaliyotda esa o'qituvchi hali asosan darslik va o'quv reja talablarini

Kadriy muammolar jihatidan eng dolzarb masala — o'qituvchilar tayyorlash tizimining orqada qolishi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari kompetensiyaviy o'qitish metodlari, formativ baholash va differensiallashgan ta'lim bo'yicha etarli amaliy ko'nikmalarga ega emas. So'rov natijalariga ko'ra, maktabda ishlayotgan o'qituvchilarning 64 foizi kompetensiyaviy yondashuv asosida dars o'tkazish bo'yicha maxsus treningda ishtirok etmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Educational Objectives. Longman.
2. Bridges, D., Ersozlu, Z., & McLaughlin, C. (Eds.). (2014). International Perspectives on Higher Education Research: The Struggle for the Soul of Educational Research. Springer.
3. Frenkel, J. R., & Wallen, N. E. (2019). How to Design and Evaluate Research in Education (10th ed.). McGraw-Hill Education.
4. Kim, J., & Lee, H. (2019). Harmonizing Confucian Pedagogy with PISA Requirements: Lessons from South Korea. Asia Pacific Journal of Education, 39(2), 185–198.
5. OECD. (2023). PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/53f23881-en
6. Sahlberg, P. (2021). Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.

АНАЛИЗ КОММУНИКАТИВНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ СОВРЕМЕННОЙ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Пирниязова Н. В.
Узбекистан, г.Нукус, и.о.доцент, доктор (PhD) по педагогическим наукам
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Цифровое пространство (киберпространство) представляет собой активно развивающуюся область социальной реальности, влияние которой на общее жизненное пространство современного человека столь велико, что не может сравниться с результатами более ранних технологических прорывов и революций.

Особое внимание при этом необходимо уделить и тому факту, что все эти «глобальные изменения» стали возможны и произошли в период времени, равный смене всего двух поколений [2].

Активное развитие цифрового пространства, сначала как теоретического допущения, а затем и как объективной реальности протекает одновременно с широким распространением сетевых цифровых технологий.

В условиях глобального распространения цифровых технологий западные социологи предлагают по-новому взглянуть на теорию поколений

[3]. Так одним из новых критериев дифференциации поколений предлагают рассмотреть современность личности по отношению к цифровым технологиям. На основании этого критерия обращает на себя внимание разрыв между поколениями «цифровых аборигенов» (тех, кто родился в эпоху массового распространения цифровых технологий) и «цифровых иммигрантов» (тех, кто родился до ее начала). С течением времени границы между этими поколениями размываются благодарявсё большему приобщению обоих поколений к практикам цифровой коммуникации, расширяются возможности для взаимодействия между ними. Культурологи отмечают, что происходит формирование нового феномена – «цифровая мудрость» [4] (как современный аналог «житейской мудрости»), формируемая не в процессе социального и биологического взросления личности, а в процессе освоения бытовых цифровых технологий. «Цифровая мудрость» начинает трактоваться как набор знаний, умений и навыков, которые позволяют личности эффективно и относительно безопасно существовать в цифровом пространстве. При этом такого рода мудрость в равной степени может быть характеристикой представителя любого поколения, вне зависимости от его возраста и собственно социального опыта. Таким образом, объектом теории поколений становится «цифровой человек» как основная единица социальной структуры.

В контексте данной работы для нас наибольший интерес представляет современная студенческая молодежь, как типичный представитель поколения «цифровых аборигенов», обладающая рядом принципиальных особенностей, к числу которых мы относим следующие:

- студенческая молодежь представляет собой первое собственно цифровое поколение – поколение, рожденное в эпоху массовой цифровой коммуникации и воспитанное поколением «цифровых иммигрантов», обладающих разнообразными знаниями и обширным опытом взаимодействия с цифровой средой. В развитии современных студентов отсутствуют «аналоговые» этапы, что позволяет говорить о них как о поколении, в полной мере интегрированном в глобальную цифровую повестку;

- студенческая молодежь обладает обширным опытом использования различных цифровых инструментов и собственной системой интеллектуально-этических критериев, позволяющих им формулировать относительно самостоятельное суждение о важности, этичности, полезности новых цифровых решений;

- студенческая молодежь транслирует более широкий тематический и функциональный запрос к цифровому пространству, чем представители более поздних поколений, в т.ч. запрос на получение релевантных профессиональных знаний и навыков, запрос на построение карьеры;

- студенческая молодежь обладает обширным опытом коммуникативно-цифровой деятельности посредством использования различных цифровых решений (мессенджеры, электронная почта, социальные сети и проч.).

Помимо перечисленных особенностей современная студенческая молодежь демонстрирует проактивную коммуникативную позицию и

персональную заинтересованность в обретении желаемого социального и профессионального статуса, что позволяет сделать вывод о том, что цифровое пространство воспринимается не столько как «игровая комната», сколько как пространство неограниченных возможностей для опережающего взросления. В этой связи важным является рассмотрение высшей школы как основного фактора формирования у студентов личностно-профессиональных компетенций, обеспечивающих оптимальный уровень соответствия выпускников требованиям рынка труда, среди которых одну из приоритетных позиций занимает коммуникативная компетентность [5].

Под коммуникативной компетентностью мы, вслед за Л. В. Антроповой, будем понимать «сложное социально-психологическое образование, выражающееся в способности человека адекватно оценивать себя, правильно определять … особенности и эмоциональные состояния партнеров по общению, прогнозировать межличностные события, выбирать и осуществлять адекватные способы общения с окружающими» [1].

Будущий специалист должен обладать не только азами построения общей коммуникации, но и владеть «языком специальности», «языком образования» и, опционально, «языком науки». Только в этом случае результат образования может считаться достигнутым. Способность выпускника состояться на уровне, соответствующем его планам: добиться карьерного роста, занять достойное положение в обществе, реализоваться как личности, - во многом зависит от уровня сформированности коммуникативной компетентности. При этом ряд исследователей отмечает, что уровень владения студентами компетенциями коммуникативной группы недостаточно высок [12–15] и не соответствует требованиям, установленным государственными образовательными стандартами. К числу основных проблем принято относить «скудость языка», «утрату социальных навыков взаимодействия», «снижение интереса к контексту протекания коммуникации», «отсутствие эмпатии и чувства психологической дистанции», «отсутствие или низкий уровень развития критического и логического мышления». Одним из ключевых факторов утраты навыков коммуникации принято называть цифровую зависимость.

Используемые источники:

1. Антропова Л. В. Коммуникативная компетентность студента как объект формирования в процессе профессиональной подготовки в вузе // Вестник Череповецкого государственного универ- ситета. 2010.

2. Бурашникова А. А. Формирование коммуникативных навыков студенческой молодежи в цифровом пространстве // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. 2024. № 4. С. 245–260. https://doi.org/10.22394/2079-1690-2024-1-4-245-260. EDN LPQGAJ

3. Бродовская Е. В., Домбровская А. Ю., Пырма Р. В., Синяков А. В., Азаров А. А. Влияние цифровых коммуникаций на формирование профессиональной культуры российской молодежи: результаты комплексного прикладного исследования // Мониторинг. 2019. № 1 (149).

4. Пошехонова В. А. Образовательная гуманитарная технология цифрового поколения // Педагогическое образование в России. 2018. № 5.
5. Киреева О. Ф., Шарков Ф. И. Новые цифровые технологии в профессиональной коммуникации // Коммуникология: электронный научный журнал. 2021. № 2.

INNOVATSION G‘OYALAR ASOSIDA PEDAGOGIK KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING GUMANITAR TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
Termiz davlat pedagogika instituti v.b dots, Pedagogika kafedrasi p.f.b.f.d.(PhD)

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va innovatsion faoliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi gumanitar ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion g‘oyalar ta’lim jarayonining mazmuni va metodologiyasini yangilashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ular pedagogik faoliyatga yangi yondashuvlarni joriy etish, o‘qitishning samaradorligini oshirish hamda ta’lim oluvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon yaratadi. Ayniqsa, gumanitar fanlar doirasida shaxsning ma’naviy-axloqiy rivoji, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda kreativ yondashuvlarning ahamiyati beqiyosdir.

Pedagogik kreativlik o‘qituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, u o‘qitish jarayonini yangicha tashkil etish, noan’anaviy metodlardan foydalanish hamda ta’lim muhitida innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, kreativlik shaxsning intellektual, emotsional va motivatsion komponentlarining uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladigan murakkab pedagogik hodisa sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e`tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo`llailmayotgan bo`lsa ham bu tushunchani ma`lum darajada pedagogik iste`molga kiritishga doir harakatlar ko`zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog`liq holda o`rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog`liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida qo`yidagi elementlar qabul qilangan. Bular: 1. Qabul qilish. 2. Xohish va istak. 3. Tasavvur qilish. 4. O`z-o`zini kuzatish. Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o`rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish qo`yidagi elementlar belgilanishi e`tirof etilgan. Bular: 1. Aqliy mehnat. 2. Intuitsiya. 3. Dunyoqarash Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita

murojaat etgan pedagog olim pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova o`zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida baholi qudrat fikrlar bildirgan. Uning «Boshlang`ich ta`limda innovatsiya»[Mavlonova R.A.:[1], «Boshlang`ich ta`lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi» nomli o`quv qo`llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to`xtab o`tgan. Buyuk olim V.A.Slastenin [Slastenin V.A.:2] pedagogning innovatsion faoliyatiga bo`lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlarini quyidagicha belgilagan: Shaxsning ijodiy motivatsiyani qo`llaganligi bu qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o`z kamolotiga intilish; • kreativlik, bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o`z ka molotiga intilish; • kasbiy faoliyatni baholash, bu - ijodiy faoliyat metodologiyasi va pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik kontseptsiyasi va ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyatlari; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o`zaro yordam berish qobiliyati; • o`qituvchining individual qobiliyati, bu - ijodiy faoliyat sur`ati va ish qobiliyati; qat`iyatlik, mas`uliyatlik va xalollik, o`zini tuta bilish.

Современный этап развития общества характеризуется переходом к информатизированной модели, в рамках которой информация и знания становятся ключевыми ресурсами социально-экономического развития. В этих условиях образование выступает стратегическим фактором формирования человеческого капитала, а языковое образование приобретает особую значимость как средство обеспечения межкультурной коммуникации и интеграции личности в глобальное информационное пространство. Цифровые технологии становятся неотъемлемым компонентом образовательной среды, определяя новые подходы к обучению и трансформируя традиционные педагогические практики.

Использование информационно-коммуникационных технологий позволяет реализовать принципы интерактивности, вариативности и индивидуализации обучения, что особенно важно в контексте формирования языковых навыков [Полат Е.:52]. При этом цифровая образовательная среда

обеспечивает доступ к разнообразным образовательным ресурсам, что способствует расширению возможностей обучения и повышению его эффективности. Важнейшей особенностью цифровых технологий является их способность интегрировать различные каналы восприятия информации. Мультимедийный характер цифровых ресурсов способствует более глубокому усвоению языкового материала, поскольку задействует зрительную, слуховую и когнитивную сферы обучающихся. Данный аспект имеет существенное значение с точки зрения психолингвистики, поскольку способствует оптимизации процессов кодирования, хранения и воспроизведения языковой информации [Зимняя И.:118].

Особое значение в системе языкового образования приобретают электронные образовательные платформы и онлайн-ресурсы, которые обеспечивают возможность организации обучения в синхронном и асинхронном режимах. Это позволяет обучающимся самостоятельно регулировать темп обучения, возвращаться к сложным материалам и осуществлять самоконтроль. Кроме того, цифровые технологии обеспечивают оперативную обратную связь, что является важным фактором успешного усвоения языкового материала [Сысоев П.:84]. В условиях информатизированного общества это приобретает особую значимость, поскольку способствует формированию автономности обучающихся. Существенным преимуществом цифровых технологий является возможность моделирования коммуникативных ситуаций, приближенных к реальному общению. Использование видеоконференций, онлайн-дискуссий, виртуальных симуляций и кейс-заданий позволяет создавать условия для активного речевого взаимодействия. В результате обучающиеся получают возможность применять языковые знания в практической деятельности, что способствует формированию коммуникативной компетенции как интегративного качества личности [Хуторской А.:162]. Коммуникативная компетенция включает в себя несколько взаимосвязанных компонентов: языковую, речевую, социокультурную и стратегическую. Цифровые технологии позволяют развивать все указанные компоненты в едином образовательном пространстве. Так, использование аутентичных материалов, размещённых в сети Интернет, способствует формированию социокультурной компетенции, поскольку обучающиеся получают доступ к реальным образцам речевого поведения носителей языка. Также цифровая образовательная среда оказывает положительное влияние на мотивационную сферу обучающихся. Использование интерактивных заданий, игровых технологий и мультимедийных ресурсов повышает интерес к изучению языка и способствует вовлечённости в образовательный процесс. В условиях традиционного обучения формирование мотивации зачастую связано с внешними факторами, тогда как цифровая среда позволяет активизировать внутреннюю мотивацию обучающихся, что положительно сказывается на результатах обучения [Пассов Е.:67].

С психолингвистической точки зрения, важным преимуществом цифровых технологий является снижение психологического барьера,

возникающего при говорении на иностранном языке. Онлайн-формат общения предоставляет обучающимся возможность выстраивать высказывание в более комфортных условиях, что способствует развитию уверенности и снижению уровня тревожности. Данный аспект особенно актуален при обучении говорению, поскольку именно этот вид речевой деятельности вызывает наибольшие трудности у обучающихся. Важным направлением цифровизации языкового образования является внедрение инновационных методов обучения, включая кейс-метод, проектную деятельность и проблемное обучение. Кроме того, в ряде образовательных учреждений наблюдается ограниченность технической базы, что снижает доступность цифровых ресурсов. Отдельного внимания заслуживает проблема информационной перегрузки обучающихся, возникающая в условиях избыточного использования цифровых технологий. Поток информации, доступный в цифровой среде, требует развития навыков критического отбора и анализа данных. В этой связи особую значимость приобретает формирование информационной культуры обучающихся как важного компонента их общей компетентности.

Таким образом, цифровые технологии оказывают многогранное влияние на развитие языкового образования в условиях информатизированного общества. Они способствуют повышению эффективности обучения, обеспечивают индивидуализацию образовательного процесса, активизируют познавательную деятельность обучающихся и создают условия для формирования коммуникативной компетенции. Вместе с тем успешная интеграция цифровых технологий в образовательный процесс требует учёта психолингвистических, педагогических и социокультурных факторов, а также разработки научно обоснованных методик их применения.

Использованнаялитература:

1. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2010. С.–52.
2. Сысоев П. В. Информационные и коммуникационные технологии в обучении иностранному языку. — М.: Глосса-Пресс, 2013. С.–84.
3. Зимняя И. А. Психология обучения иностранным языкам. — М.: Просвещение, 2001. С.–118.
4. Хуторской А. В. Современная дидактика. — СПб.: Питер, 2015. С. 162.
5. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. — М.: Просвещение, 1991. С.–67.

PEDAGOGICAL AND DISCURSIVE FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ESP CLASSROOMS OF TECHNICAL UNIVERSITIES

Khodjaeva Guzal
Senior teacher, Fergana state technical university

In recent decades, the increasing internationalization of higher education has led to a growing demand for English language proficiency among students of technical universities. English is widely recognized as the primary medium of global scientific communication, which makes it essential for future engineers, IT specialists, and other technical professionals to develop not only general language skills but also the ability to operate within professional and academic contexts.

At the same time, the process of teaching English in technical universities presents specific challenges. Students are required to engage with complex subject-specific content while simultaneously developing their linguistic competence. This dual cognitive load often results in difficulties in comprehension, reduced participation, and limited interaction in the target language.

Traditionally, foreign language teaching has been dominated by monolingual approaches, which emphasize maximum exposure to the target language and discourage the use of the native language in the classroom. However, recent developments in applied linguistics and classroom research have begun to question this paradigm. Increasing attention is now being paid to multilingual practices, particularly code-switching, as a natural and potentially beneficial feature of classroom communication.

Code-switching, understood as the alternation between two or more languages within a single communicative event, is a common phenomenon in bilingual and multilingual settings. While earlier studies often viewed it as a sign of linguistic deficiency, contemporary research recognizes it as a strategic resource that speakers use to manage interaction, construct meaning, and achieve communicative goals.

In the context of English for Specific Purposes (ESP), code-switching takes on additional significance. ESP classrooms are characterized by a strong focus on content learning, where language serves as a tool for accessing and communicating specialized knowledge. In such environments, strict adherence to monolingual instruction may limit students' ability to fully understand complex concepts and actively participate in discussions.

Despite the growing body of research on code-switching, there is still a need for studies that examine its role not only as a pedagogical technique but also as a discursive phenomenon within classroom interaction. Understanding how code-switching functions in real-time communication between teachers and students can provide valuable insights into its pedagogical potential.

Therefore, the aim of this study is to explore the pedagogical and discursive functions of code-switching in ESP classrooms at technical universities. The study seeks to identify how code-switching contributes to organizing classroom discourse,

managing interaction, and facilitating meaning negotiation in multilingual learning environments.

The findings of this study suggest that code-switching should be viewed not only as a teaching aid but as an integral component of classroom discourse. It plays a dynamic role in shaping interaction and facilitating communication.

From a discourse perspective, code-switching contributes to the co-construction of meaning between teachers and students. It allows participants to move flexibly between languages depending on communicative needs.

Importantly, the results challenge the traditional monolingual ideology in language teaching. In ESP contexts, where content complexity is high, strict adherence to target-language-only instruction may limit effective communication.

At the same time, the study confirms that the effectiveness of code-switching depends on context-sensitive use. It is most beneficial when it emerges naturally as part of interaction rather than being imposed or overused.

This study highlights the importance of code-switching as a discursive and pedagogical resource in ESP classrooms at technical universities. It demonstrates that code-switching supports interaction, enhances understanding, and contributes to a more effective learning environment.

Recognizing code-switching as a legitimate classroom practice can lead to more flexible and realistic teaching approaches in multilingual settings.

Future research may explore how code-switching functions in digital learning environments and its role in hybrid or online ESP instruction.

References:

1. Gumperz, J. J. (1982). *Discourse Strategies*. Cambridge University Press.
2. Auer, P. (1998). *Code-Switching in Conversation: Language, Interaction and Identity*. Routledge.
3. Sert, O. (2005). *The Functions of Code Switching in ELT Classrooms*. The Internet TESL Journal.
4. Lin, A. M. Y. (2013). *Classroom Code-Switching: Three Decades of Research*. Applied Linguistics Review.
5. Walsh, S. (2011). *Exploring Classroom Discourse*. Routledge.
6. Cook, V. (2001). *Using the First Language in the Classroom*. Canadian Modern Language Review.
7. Macaro, E. (2009). *Teacher Use of Code-Switching in the Second Language Classroom*.
8. Canagarajah, S. (2011). *Translanguaging in the Classroom*.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Ergasheva Xilola Yunusxanovna
Impuls tibbiyot instituti dotsenti

Globallashuv jarayonlari va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorlikdagi faol ishtiroki sharoitida chet tillarni erta o‘rgatish masalasi davlat ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PF-6247-sonli Farmoni hamda “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri maktabgacha yoshdagi bolalarga sifatli va zamonaviy ta‘lim berish zarurligini alohida ta‘kidlaydi. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davr neyropsixologiyada “sezgir davr” (sensitive period) deb ataladi: bu vaqtda miya plastikligi eng yuqori darajada bo‘lib, tilni o‘zlashtirish jarayoni tabiiy va tez kechadi. Biroq an‘anaviy yondashuv — yodlatish va takrorlash — mazkur yoshdagi bolalar uchun muvofiq emas, chunki ularning diqqat ko‘lami qisqa, abstrakt tafakkur hali shakllanmagan. Shu sababli pedagogik jamoatchilik o‘rtasida multimodal yondashuvga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Multimodal yondashuv (Mayer, 2001; Jewitt, 2009) bir vaqtning o‘zida bir nechta idrok kanallarini — ko‘rish (vizual), eshitish (audial), harakat (kinestetik) va taktil his-tuyg‘ularni — faollashtirish orqali o‘rganish samaradorligini oshirishga asoslangan ta‘lim nazariyasidir. Nation (2001) ta‘rifiga ko‘ra, leksik kompetensiya so‘zning shakli, ma‘nosi, grammatik xususiyatlari va kontekstdagi qo‘llanilishini o‘z ichiga oladi. Richard Mayer tomonidan ishlab chiqilgan “Multimedia o‘rganish kognitiv nazariyasi” (CTML) shuni ko‘rsatadiki, inson miyasi vizual va verbal ma‘lumotlarni alohida kanallar orqali qayta ishlaydi; ikki kanal bir vaqtda faollashtirilganda uzoq muddatli xotiraga o‘tkazish samaradorligi sezilarli ortadi. Neyrobiologik tadqiqotlar (Posner & Rothbart, 2007) esa harakatli o‘yin jarayonida dopamin ishlab chiqarilishi kuchayishini va bu holat o‘rganilgan leksik birliklarning mustahkamlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Pedagogik jihatdan Montessori (sensor materiallar), Vygotskiy (yaqin rivojlanish zonasi va o‘yinning roli) va Total Physical Response — TPR (Asher, 1969) metodlari multimodal yondashuvning nazariy zaminini tashkil etadi.

Muallif tomonidan 2022—2023-yillarda Toshkent shahridagi ikkita maktabgacha ta‘lim muassasasida pedagogik kuzatuv va qiyosiy tajriba o‘tkazildi. Tajribada 4—5 yoshli 48 nafar bola ishtirok etdi: tajriba guruhi (n=24) multimodal yondashuv asosida, nazorat guruhi (n=24) an‘anaviy (luğat yodlatish + takrorlash) usulida ingliz tilidagi leksik birliklarni o‘zlashtirishga o‘qitildi. Baho mezoni sifatida Picture Vocabulary Test (PVT) va nutqiy ishlab chiqish ko‘rsatkichlari tanlandi. Multimodal yondashuvning asosiy komponentlari sifatida vizual kanal (rangli flashcard, animatsion video, interaktiv luğat doskasi), audial kanal (inglizcha qo‘shiqlar, she‘rlar, tovushli hikoyalar), kinestetik kanal (TPR harakatlari, rolli o‘yinlar, qo‘g‘irchoq teatri) hamda taktil kanal (leksik mavzuga oid real buyumlar, plastilin modellash, applikatsiya) qo‘llanildi.

Sakkiz haftalik mashg‘ulotlar yakunida quyidagi natijalar qayd etildi: tajriba guruhida faol leksik zaxira o‘rtacha 68% ga oshdi (nazorat guruhida 31%); so‘zlarni erkin nutqda qo‘llash ko‘rsatkichi tajriba guruhida 2,4 barobar yuqori bo‘ldi; leksik birliklarni bir hafta o‘tgach eslab qolish darajasi tajriba guruhida 79%, nazorat guruhida esa 44% ni tashkil etdi; bolalarning darsga qiziqishi va ishtiroki tajriba guruhida sezilarli yuqori kuzatildi. Olingan natijalar CTML nazariyasi bilan to‘liq muvofiq keladi: bir nechta sensor kanalning bir vaqtda ishtirok etishi leksik birliklarning miyada ko‘p qirrali iz qoldirishi (multi-trace encoding) hisobiga qayta eslash ehtimolini oshiradi.

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, multimodal yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilida leksik kompetensiyani shakllantirishda an‘anaviy usullardan sezilarli darajada ustun turadi. Yondashuv bolaning yosh psixofiziologik xususiyatlariga (sensor dominantlik, o‘yin orqali o‘rganish, qisqa diqqat muddati) to‘liq mos kelishi uni amaliy jihatdan samarali qiladi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida chet tili mashg‘ulotlarini loyihalashda multimodal tamoyilni asosiy metodologik yondashuv sifatida qabul qilish, tarbiyachi va chet tili o‘qituvchilarini multimodal ta‘lim strategiyalariga yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslaridan o‘tkazish hamda maktabgacha ta‘lim standartlarini yangilashda leksik kompetensiyaning sensor-harakatli o‘zlashtirish yo‘llari alohida qayd etilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mayer R.E. Multimedia Learning. — Cambridge University Press, 2001.
Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. — Cambridge University Press, 2001.
2. Asher J.J. The Total Physical Response Approach to Second Language Learning // The Modern Language Journal. — 1969. — Vol. 53, № 1. — P. 3—17.
3. Jewitt C. The Routledge Handbook of Multimodal Analysis. — Routledge, 2009.
4. Vygotskiy L.S. O‘yin va uning bolaning psixik rivojlanishidagi roli. — Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
5. Posner M.I., Rothbart M.K. Research on Attention Networks as a Model for the Integration of Psychological Science // Annual Review of Psychology. — 2007. — Vol. 58. — P. 1—23.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6247-sonli Farmoni “Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. — Toshkent, 2021.
7. Ergasheva X.Yu. Multimodal ta‘lim metodikasini maktabgacha ta‘limga joriy etish tajribasi // Tibbiyot va ta‘lim. — 2023. — № 4. — B. 112—118.

RAQAMLI TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Ergasheva Xilola Yunusxanovna
Impuls tibbiyot instituti dotsenti

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’limning barcha bosqichlariga kirib kelmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalari ham bu jarayondan chetda qolmayapti: smartfon, planshet va interaktiv taxtalar bolalar kundalik hayotining bir qismiga aylanib ulgurgan. O’zbekiston Respublikasining "Raqamli O’zbekiston — 2030" strategiyasi va "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi qonunning yangi tahriri maktabgacha ta’limda zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishni davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida belgilaydi.

Ilmiy adabiyotlarda 3—6 yosh "sezgir davr" (sensitive period) sifatida ta’riflanadi — bu davrda miya neyral plastikligi maksimal darajada bo’lib, til va so’z boyligini o’zlashtirish eng samarali kechadi (Kuhl, 2010). Biroq an’anaviy flashcard va luğat yodlatish usullari mazkur yoshdagi bolalar uchun zarur bo’lgan dinamizm, ranglilik va interaktivlikdan mahrum. Raqamli ta’lim vositalari (EdTech) esa o’yin, animatsiya, tovush va takrorlash mexanizmlarini birlashtirib, leksik o’zlashtirishning samarali ekologiyasini yaratish imkonini beradi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli vositalarning maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tili leksik kompetensiyasiga ta’sirini maxsus tadqiq etgan mahalliy ilmiy ishlar hali yetarli emas.

Leksik kompetensiya tushunchasini Nation (2001) keng qamrovli tarzda ta’riflaydi: u so’zning fonetik shakli, ma’nosi, grammatik xususiyatlari, kolokatsiyalari va nutqdagi qo’llanilish me’yorlarini bilishni o’z ichiga oladi. Raqamli ta’lim vositalarining samaradorligini tushuntiruvchi bir nechta nazariy asos mavjud. Richard Mayer (2009) ning "Multimedia o’rganish kognitiv nazariyasi" (CTML) shuni ko’rsatadiki, vizual va verbal ma’lumot bir vaqtda uzatilganda inson miyasi ularni integrasiyalangan tarzda qayta ishlaydi va uzoq muddatli xotiraga o’tkazish 65—70% ga samaraliroq kechadi. Vygotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" (ZPD) tushunchasi raqamli platformalardagi adaptiv qiyinlik darajasi mexanizmi bilan chambarchas bog’liq: ilova bolaning hozirgi bilim darajasini aniqlab, keyingi leksik birliklarni unga mos ravishda taqdim etadi. Gamifikatsiya nazariyasi (Deterding et al., 2011) o’yin elementlari — ball, yutuq nishoni (badge), reyting — motivatsiyani ushlab turuvchi dopaminerjik tizimni faollashtirishi va bu holat leksik birliklarning mustahkamlanishiga xizmat qilishini asoslaydi.

Raqamli ta’lim vositalarini maktabgacha ta’limda qo’llashda SAMR modeli (Puentedura, 2006) foydali metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Ushbu model texnologiyani o’quv jarayoniga to’rt darajada — almashtirish (substitution), kuchaytirish (augmentation), o’zgartirish (modification) va qayta ixtiro qilish (redefinition) — kiritishni ko’zda tutadi. Leksik kompetensiyani shakllantirish uchun «O’zgartirish» va «Qayta ixtiro qilish» darajalari, ya’ni texnologiya yangi pedagogik imkoniyatlar yaratadigan hollar, eng samarali hisoblanadi.

O’tkazilgan tadqiqot raqamli ta’lim vositalaridan maqsadli va metodologik asoslangan holda foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tili leksik kompetensiyasini shakllantirish samaradorligini an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada oshirishini ko’rsatdi. Raqamli vositalarning interaktivligi, animatsion boyligi va gamifikatsiya elementlari bolaning tabiiy o’yin moyilligiga mos kelib, o’rganishni zavqli va samarali jarayonga aylantiradi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida chet tili mashg‘ulotlarida raqamli vositalarni an’anaviy usullar bilan muvozanatli birlashtirib qo’llash (ekran vaqti: 15—20 daqiqa), tarbiyachilar uchun pedagogik EdTech savodxonligini oshirishga yo’naltirilgan maxsus treninglar tashkil etish, ota-onalar bilan hamkorlikda uyda ham raqamli leksik muhitni shakllantirish hamda O’zbekiston sharoitiga moslashtirilgan mahalliy raqamli leksik platformalarni ishlab chiqish ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 477 p.
2. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009. — 320 p.
3. Kuhl P.K. Brain Mechanisms in Early Language Acquisition // Neuron. — 2010. — Vol. 67, № 5. — P. 713—727.
4. Deterding S. et al. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification // Proc. of MindTrek’11. — ACM, 2011. — P. 9—15.
5. Puentedura R.R. Transformation, Technology, and Education. — 2006. — URL: http://hippasus.com/resources/tte/ Vygotskiy L.S. O’yin va uning bolaning psixik rivojlanishidagi roli. — Toshkent: O’qituvchi, 1983. — 168 b.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O’zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. — Toshkent, 2020.
7. Ergasheva X.Yu. Maktabgacha ta’limda raqamli vositalarni chet tili o’qitishga tatbiq etish imkoniyatlari // Pedagogika va psixologiya. — 2023. — № 3. — B. 87—94.

INTERNET MADANIYATI VA LEKSIK INNOVATSIYALAR: YOSHLARNING KREATIV TIL MODELI

Jumaniyazova Feruza Iskanderovna
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, Nukus

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlararo kommunikatsiyaning asosiy platformasiga aylanib, til taraqqiyotining eng faol omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, Instagram, TikTok va Telegram kabi raqamli platformalar nafaqat axborot almashinuvi, balki yangi lingvistik birliklarning shakllanishi va ommalashuvi uchun muhim muhit vazifasini bajaradi. Ushbu jarayonda yoshlar eng faol ijtimoiy qatlam sifatida yangi so‘z va iboralarni tez qabul qiluvchi hamda ularni kundalik nutqqa joriy etuvchi subyekt sifatida ajralib turadi. Bugungi kunda yoshlar nutqida leksik innovatsiyalarning paydo bo‘lishi ayniqsa tezlashgan bo‘lib, bu jarayon globalizatsiya va raqamli kommunikatsiya bilan bevosita bog‘liqdir. Ingliz tilidan kirib kelayotgan “trend” -

trend, “challenge” - chellendj, “cringe” - krindj kabi o‘zlashgan birliklar, shuningdek, turli internet memlari va slang shakllari qisqa vaqt ichida ommalashib, yangi semantik va pragmatik yuklama kasb etmoqda. Bunday birliklar nafaqat kommunikativ ehtiyojni qondiradi, balki yoshlarning emotsional holatini, ijtimoiy pozitsiyasini va guruh identitetini ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek, internet madaniyati tilga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, an’anaviy til me’yorlarining transformatsiyasiga olib kelmoqda. Memlar, qisqartmalar, fonetik o‘zgarishlar va kod-aralash nutq shakllari (code-switching) orqali yoshlar tilida kreativ va dinamik leksik tizim shakllanmoqda. Bu esa tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki kreativ fikrlash va o‘zini ifodalashning muhim instrumentiga aylantiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi internet madaniyati ta’sirida yuzaga kelayotgan leksik innovatsiyalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning yoshlar nutqidagi funksional xususiyatlarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - internet diskursi doirasida shakllanayotgan yangi leksik birliklarning kelib chiqishi, qo‘llanish xususiyatlari hamda yoshlarning kreativ til modelini shakllantirishdagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Internet diskursi zamonaviy tilshunoslikda raqamli kommunikatsiya muhitida shakllanadigan o‘ziga xos nutq turi sifatida talqin qilinadi. U an’anaviy yozma va og‘zaki nutqdan farqli ravishda interaktivlik, tezkorlik, multimodallik (matn, rasm, emoji, video uyg‘unligi) hamda norasmiylik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Internet diskursida kommunikatsiya ko‘pincha qisqa, emotsional va kontekstga bog‘liq bo‘lib, bunda foydalanuvchilar o‘z fikrlarini ixcham va ta’sirchan shaklda ifodalashga intiladilar. Natijada til birliklarining soddalashuvi, qisqartirilishi va yangi shakllarning paydo bo‘lishi kuzatiladi [1:86].

Leksik innovatsiya tushunchasi til tizimida yangi so‘z va iboralarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lib, u neologizmlar, o‘zlashgan so‘zlar va qisqartmalar kabi birliklarni qamrab oladi. Neologizmlar yangi tushunchalarni ifodalash zarurati natijasida yuzaga kelsa, o‘zlashgan so‘zlar boshqa tillardan kirib kelib, ma’lum darajada fonetik, semantik va grammatik moslashuvdan o‘tadi. Qisqartmalar esa kommunikativ iqtisod tamoyiliga asoslanib, nutqni tez va qulay shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Internet muhitida aynan shu turdagi birliklar eng faol qatlamni tashkil etadi va tez ommalashadi [2:48]. Kreativ til modeli va “language play” (til o‘yini) tushunchalari esa foydalanuvchilarning til birliklaridan erkin va ijodiy foydalanishini anglatadi. Bu jarayonda so‘zlar o‘zgartiriladi, yangi shakllar yaratiladi, mavjud birliklarga yangi ma’no yuklanadi yoki ular kutilmagan kontekstda qo‘llanadi. Ayniqsa yoshlar nutqida bunday kreativlik yuqori darajada namoyon bo‘lib, ularning individual va guruhiy identitetini ifodalashga xizmat qiladi [3:113]. Lingvokulturologik yondashuv esa til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har bir leksik birlik ma’lum bir madaniy kontekstni aks ettiradi va ijtimoiy tajriba bilan bog‘liq holda shakllanadi. Internet madaniyati doirasida yuzaga kelayotgan leksik innovatsiyalar ham global va lokal madaniy qatlamlarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida qaraladi. Shu bois, yoshlar nutqidagi yangi til birliklarini tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy jarayonlarni ham chuqur anglash imkonini beradi [4:56].

Internet madaniyati sharoitida leksik innovatsiyalar turli manbalar asosida shakllanib, ayniqsa ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida yetakchi o‘rin egallaydi. Bugungi kunda “trend”, “challenge”, “vibe” kabi birliklar yoshlar nutqiga faol kirib kelib, ko‘pincha asl semantik ma’nosini qisman saqlagan holda yangi pragmatik vazifalarni bajaradi. Bunday o‘zlashmalar tez tarqalishi va universal tushunarliligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, koreys madaniyati ta’siri ham sezilarli bo‘lib, K-pop va drama industriyasi orqali “oppa”, “unni”, “daebak” kabi birliklar yoshlar diskursida qo‘llanilmoqda. Mazkur jarayon ijtimoiy tarmoqlar, TikTok, Instagram va Telegram platformalari orqali yanada jadallashib, yangi leksik birliklarning keng auditoriyaga tez yetib borishini ta’minlamoqda [1:86]. Yoshlar nutqida kreativ til modeli aynan shu raqamli muhitda faol shakllanadi. Slang va informal leksika kundalik muloqotning ajralmas qismiga aylanib, nutqning erkin va ekspressiv bo‘lishini ta’minlaydi. So‘z o‘yinlari - qisqartirish (masalan, “info”, “admin”), fonetik o‘zgartirish (“zo‘r” - “zor”), shuningdek, kod-aralash nutq (ozbek - ingliz aralash) yoshlarning lingvistik ijodkorligini namoyon etadi. Memlar esa zamonaviy kommunikatsiyada alohida fenomen bo‘lib, ular orqali murakkab g‘oyalar qisqa va obrazli shaklda ifodalanadi, natijada yangi konnotativ ma’nolar yuzaga keladi [2:47].

O‘zlashgan so‘zlarning funksional xususiyatlari ham internet diskursida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, ular nutqqa ekspressivlik va emotsionallik bag‘ishlaydi, ya’ni foydalanuvchi o‘z hissiyotini aniq va ta’sirchan ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, bunday birliklar kommunikativ tezlik va qulaylikni ta’minlaydi, chunki qisqa va universal shakllar tezkor muloqotga moslashgan. Uchinchidan, o‘zlashgan leksika ma’lum ijtimoiy guruhga mansublikni, ya’ni identitetni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi - ayniqsa yoshlar orasida bu jihat muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Shuningdek, internet tilining keng tarqalishi yoshlarning tanqidiy va kreativ tafakkuriga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli muhitda axborotning tez almashinuvi foydalanuvchilardan qisqa vaqt ichida ma’lumotni qabul qilish, qayta ishlash va unga munosabat bildirishni talab qiladi. Natijada yoshlar fikrlashining fragmentarligi bilan birga, kreativlik darajasi ham ortadi. Til bu jarayonda nafaqat aloqa vositasi, balki yangi g‘oyalarni yaratish, ularni ifodalash va tarqatish instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, internet diskursi doirasida shakllanayotgan leksik innovatsiyalar yoshlarning zamonaviy tafakkur modeli bilan uzviy bog‘liqdir [4:60].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, internet madaniyati zamonaviy leksik tizimni sezilarli darajada dinamiklashtirib, uning ochiq va tez o‘zgaruvchan xarakterini kuchaytirmoqda. Raqamli kommunikatsiya muhitida yangi so‘z va iboralar qisqa vaqt ichida paydo bo‘lib, keng ommaga tarqaladi hamda faol nutqiy birlikka aylanadi. Bu jarayon tilning an’anaviy rivojlanish sur’atiga nisbatan ancha tez kechib, leksik qatlamning doimiy yangilanib borishini ta’minlaydi [1:85].

Shuningdek, yoshlar nutqi bugungi kunda o‘ziga xos “innovatsion til laboratoriyasi” sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aynan yoshlar yangi leksik birliklarni yaratish, o‘zlashtirish va ularni ommalashtirishda yetakchi rol o‘ynaydi. Ularning nutqida slang, qisqartmalar, o‘zlashgan so‘zlar va memetik birliklar faol qo‘llanilib, til tizimining eksperimental rivojlanish maydonini yuzaga keltiradi. Bu esa

tilshunoslikda yoshlar diskursini alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

O‘zlashgan so‘zlar esa faqat nominativ birlik sifatida emas, balki kreativ tafakkur vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular yordamida foydalanuvchilar o‘z fikrini yanada aniq, qisqa va ta’sirchan ifodalash imkoniga ega bo‘lib, yangi ma’no va konnotatsiyalarni yaratadi. Natijada o‘zlashgan leksika kommunikativ jarayonda ijodiy yondashuvni rag‘batlantiruvchi vositaga aylanadi hamda zamonaviy tafakkur modelining ajralmas qismi sifatida shakllanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari internet madaniyati ta’sirida yuzaga kelayotgan leksik innovatsiyalar yoshlar nutqining asosiy xususiyatlaridan biriga aylanganini ko‘rsatdi. Internet diskursi doirasida shakllanayotgan yangi til birliklari leksik tizimning dinamik rivojlanishini ta’minlab, uning funksional imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ayniqsa, o‘zlashgan so‘zlarning faol qo‘llanilishi zamonaviy kommunikatsiyada samaradorlik, ekspressivlik va kreativlikni oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kelajakda internet tilining rivojlanishi yanada jadallashib, yangi leksik qatlamlarning shakllanishiga olib kelishi kutilmoqda. Sun’iy intellekt, avtomatik tarjima tizimlari va global raqamli platformalarning kengayishi natijasida til tizimida yangi transformatsion jarayonlar yuzaga keladi. Bu esa tilshunoslikda raqamli diskurs, leksik innovatsiya va lingvokulturologik jarayonlarni chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda olib boriladigan kelgusi tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, zamonaviy jamiyatda tilning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Crystal D. *Language and the Internet*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 272 p.
2. Crystal D. *Internet Linguistics: A Student Guide*. – London: Routledge, 2011. – 178 p.
3. Aitchison J. *Language Change: Progress or Decay?* – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 320 p.
4. van Dijk T.A. *Discourse and Power*. – London: Palgrave Macmillan, 2008. – 308 p.
5. Harris Z.S. Discourse Analysis Revisited // *Language Sciences*. – 2002. – Vol. 24. – P. 1–30.
6. Karasik V.I. *Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs*. – Volgograd, 2002. – 477 s.
7. Karasik V.I. *Yazyk i kul'tura*. – Moskva: Gnozis, 2004. – 390 s.
8. Eco U. *A Theory of Semiotics*. – Bloomington: Indiana University Press, 1976. – 354 p.
9. Yule G. *The Study of Language*. – 7th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 364 p.
10. Jones R.H. *Discourse Analysis: A Resource Book for Students*. – London: Routledge, 2012. – 240 p.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. *Yoshlar siyosati to‘g‘risidagi hujjatlar to‘plami*. – Toshkent, 2020.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. *Ta’lim to‘g‘risidagi normativ hujjatlar*. – Toshkent, 2021.

TECHNOLOGY IN EDUCATION

Scientific Supervisor: Azbergenova Gulnur
Republic of Karakalpakstan, Nukus city,
Ibragimova Mashhura Mansurbekovna
1st-year student, Philology and Language Teaching University of Innovation Technologies, Nukus Branch

Technology has become one of the most influential forces in modern society and has significantly transformed the field of education. From the earliest tools of learning such as spoken language, writing systems, pencils, and printed books to today’s computers, smartphones, and online platforms, technology has always played an essential role in the development and transmission of knowledge. What humans usually do is invent something helpful, then immediately use it to procrastinate, but education remains one of the better uses.

In recent years, the rapid growth of digital technologies has changed traditional teaching and learning methods. Classrooms are no longer limited to physical spaces, as students can now access educational materials through online courses, virtual classrooms, and blended learning systems. These innovations have made education more flexible, interactive, and accessible for learners in different parts of the world.

However, technology should not be viewed only as a neutral tool used for convenience. It is also a medium that shapes communication, culture, and social relationships. Its integration into education is closely connected with economic development, social change, and globalisation. Therefore, the use of technology in education requires critical reflection and responsible implementation.The purpose of this article is to examine the role of technology in education, its historical development, major advantages, possible challenges, and its future potential. It also explores how educational institutions can use technology effectively to improve teaching quality and learning outcomes.

Technology has played a significant role in the development of education throughout history. In the past, simple tools such as spoken language, writing, paper, pencils, and printed books helped people share knowledge from one generation to another. These inventions created the foundation of modern education and made learning more organized and accessible. Without them, humanity would still be shouting facts across fields and hoping someone remembered.[1]

Today, modern technology has transformed traditional teaching methods in many ways. Computers, projectors, tablets, smartphones, and internet platforms are now widely used in schools and universities. Teachers can present lessons more effectively through videos, presentations, and interactive applications. Students can

also access information quickly, complete assignments online, and communicate with teachers more easily.[2]

One of the greatest advantages of technology in education is flexibility. Online learning and blended learning systems allow students to study anytime and anywhere. This is especially useful for people who live in remote areas or have limited access to educational institutions. Technology also supports individual learning styles, because students can learn at their own pace using digital resources.

However, the use of technology in education also creates certain challenges. Not all students have equal access to devices or stable internet connections. Excessive dependence on technology may reduce face-to-face communication and critical thinking skills. In addition, both teachers and students need proper training to use digital tools effectively and responsibly.

Despite these challenges, the future of education is closely connected with technological development. Artificial intelligence, virtual reality, and advanced learning platforms are expected to make education more personalized and efficient. If used wisely, technology can improve the quality of education and prepare students for the demands of the modern world.[3]

In conclusion, technology has become an essential part of modern education and continues to shape the way people teach and learn. From traditional tools such as writing and printed books to advanced digital systems, technology has always supported the spread of knowledge and the improvement of learning processes. Today, innovations such as online education, blended learning, and interactive platforms provide greater flexibility, accessibility, and efficiency.

At the same time, the integration of technology into education also brings challenges, including unequal access to resources, overdependence on digital tools, and the need for digital literacy. These issues show that technology should be used carefully and responsibly rather than blindly celebrated like every shiny human invention.

Overall, when applied thoughtfully, technology can greatly enhance educational quality, create new opportunities for learners, and prepare future generations for a rapidly changing world. Therefore, educational institutions should continue to develop effective strategies for the balanced and meaningful use of technology.

References:

1. Cloete, A. L. (2017). Technology and education: Challenges and opportunities. HTS Theological Studies, 73(3), 1-7.
2. Raja, R., & Nagasubramani, P. C. (2018). Impact of modern technology in education. Journal of Applied and Advanced Research, 3(1), 33-35.
3. Ward, P. (2001). Technology in education: An overview. Hokkai-Gakuen University Journal of Humanities.
4.Google Scholar. Retrieved from https://scholar.google.com/

BASLAWISH KLASS OQIWSHILARINDAǴI QORQIWDI JEŃIWDE QUWIRSHAQ TEATRINIŃ ÁHMIYETI

Ernazarov Nurlanbek Esnazarovich
Qaraqalpaqstan Respubdikası, Nókis qalası, Ózbekstan mámleketlik kórkem-óner hám mádeniyat institutı Nókis filiali, "Social gumanitar pánler" kafedrası assistent oqıtıwshısı

Baslawısh klass jası (7-10 jas) balalardıń psixikalıq, emociyalıq hám sociallıq rawajlanıwındaǵı eń áhmiyetli dáwirlerdiń biri esaplanadı. Bıraq, usı dáwirde balalarda mektepke, oqıw procesine hám jámiyetlik qatnasıqlarǵa baylanıslı túrli sociallıq qorqıwlar (mısalı, qátelesiwden, jaman baha alıwdan, qarım-qatnasta háweterleniw yamasa pikirin aytıwda) aktivlesiwi múmkin [4.45]. Balalarda óz waqtında sheshilmegen qorqıw sezimleri, balanıń shaxs sıpatında qáliplesiwine unamsız tásir etip, onıń ózine bolǵan isenimin túsiredi hám toparǵa biyimlesiwin qıyınlastıradı.

Usı mashqalanı sheshiwde hám balalardıń ruwxıy jaǵdayın jaqsılawda quwırshaq teatrı (teatr pedagogikası hám art-terapiya quralı sıpatında) ózine tán hám eń nátiyjeli usıllardıń biri bolıp tabıladı. Quwırshaq teatrı bala ushın qáwipsiz psixologiyalıq ortalıq jaratadı. Balalar ózleriniń qorqıwların yamasa ishki keshirmelerin tuwrıdan-tuwrı aytıp beriwi qıyın bolıwı múmkin, bıraq quwırshaq arqalı bul procesti ámelge asırıw ańsatlasadı [6.68]. Quwırshaq bala ushın bir psixologiyalıq "qorǵawshı qalqan" wazıypasın atqaradı: saxnada qorqıp atırǵan bala emes, al quwırshaqtıń ózi bolıp kórinedi, al bala onıń atınan sóylep, mashqalanı sınaqtan ótkeredi.

Teatr hám quwırshaqlar menen islesiw arqalı balalar qorqıw yamasa uyalıw sezimlerin jeńedi hám kútilmegen jaǵdaylarda shaqqanlıq penen háreket etiwge úyrenedi [1.269]. Saxnadaǵı qaharmanlardıń qorqıwlardı qanday jeńip atırǵanın baqlaw yamasa olardı atqarıw balanı keleshekte ushırasıwı múmkin bolǵan mashqalalarǵa ruwxıy jaqtan tayarlaydı.

Bul ilimiy maqalanıń tiykarǵı maqseti – baslawısh klass oqıwshılarında ushırasatuǵın túrli qorqıw sezimlerin jeńiwde quwırshaq teatrınıń psixologiyalıq hám pedagogikalıq tásirlerin ilimiy jaqtan analizlew, sonday-aq onı bilimlendiriw hám tárbiya processinde ámeliyatta nátiyjeli qollanıw boyınsha usınıslar islep shıǵıwdan ibarat.

Quwırshaq teatrı arqalı qorqıwdı jeńiw mexanizmleri hám ámeliy mısallar. Quwırshaq teatrı balalardıń psixologiyalıq qorǵanıw mexanizmlerin jumsaqtıw hám qorqıwların sırtqa shıǵarıw (eksteriorizaciya) ushın eń qolaylı ortalıq jaratadı. Balalar quwırshaq penen oynaǵan waqıtta oǵan óziniń sezimlerin, sonday-aq qorqıw hám úmítsizliklerin júkleydi [5.52]. Bul process psixologiyada "proekciya" dep ataladı. Quwırshaq balanıń ózine aytıwǵa qıyın bolǵan awır keshirmelerin sáwlelendiriwshi quralǵa aylanadı. Bala quwırshaq arqalı mashqalanı sırtınan baqlaydı, oǵan sheshim tabadı hám qorqıwların qáwipsiz, oyın túrinde jeńip ótedi.

Quwırshaq teatrınıń qorqıwǵa qarsı tásirin anıq túsiniw ushın tómendegi ámeliy hám ómirlik jaǵdaylardı kórip shıǵamız:

1-mısal: Doskaga shıǵıp juwap beriwden yamasa qátelesiwden qorqıw (Mektep qorqıwları)

-Teatrdaǵı jaǵday: Baslawısh klass oqıwshısı sabaqta qátelesip qalıwdan yamasa klaslaslarınıń onıń ústinen kúliwinen qorqıp, juwap beriwden bas tartadı. Teatr dógereginde yamasa art-terapiyada oqıtıwshı oǵan "Bilgir túlki" yamasa "Batır ayıw" quwırshaǵın qolına kiyiwdi hám sorawlarǵa quwırshaqtıń atınan juwap beriwin soraydı. Bala sóylegeninde, eger quwırshaq qátelesse, heshkim onıń ústinen kúlmekshi bolmaydı, oqıtıwshı tek ǵana quwırshaqtı ásten ǵana tuwırlap qoyadı.

-Ómirlik nátiyje: Bala qátelesiw balaǵa emes, al quwırshaqqa tiyisli dep qabıl etedi. Bul qorǵaw mexanizmi onıń uyalıw hám qorqıw sezimin sezilerli dárejede kemeytedi [8.114]. Waqıt ótiwi menen bala "qátelesiw – jaman yamasa qorqınıshlı nárse emes, onı tuwırlaw múmkin" degen túsinikti ámelde ózlestiredi. Real mektep ómirinde de ol quwırshaqsız-aq óz oyın erkin, qorqpastan aytıp beriwge biyimlesip baradı hám doskaga shıǵıw qorqıwı joǵaladı.

2-mısal: Qarańǵılıqtan yamasa jasalma bolǵan (fantaziyalıq) maquluqlardan qorqıw

-Teatrdaǵı jaǵday: Bala qarańǵı xanada uyıqlawdan yamasa jalǵız qalıwdan qorqadı. Teatr procesinde bala "qorqınıshlı maqluq" hám onı jeńiwshi “kishkene, bıraq aqıllı qaharman” quwırshaqtı tańlaydı. Oyın dawamında bala qorqınıshlı maqluqtıń rolin de, onı jeńgen aqıllı qaharmannıń rolin de ózi basqaradı. Ol maqluqtıń háreketlerin ózi oylap tabadı hám oyın dawamında batır qaharmannıń járdeminde maqluqtı kúlkili yamasa ájiz jaǵdayǵa túsiredi.

-Ómirlik nátiyje: Qorqıw obyekti (maqluq) ústinen qadaǵalaw endi balanıń óz qolına ótedi. Ol endi qorqıwdıń qurbanı emes, al onı basqarıwshı kúshke aylanadı [2.89]. Balanıń ruwxiyatında qorqıw sezimi oyın hám kúlkige aylanadı. Real ómirde bala qarańǵı xanaǵa kirgeninde yamasa jalǵız qalǵanında, onıń yadına quwırshaq oyınındaǵı kúlkili hám ózi ańsat ǵana jeńgen "maqluq" túsedi, bunıń nátiyjesinde ishki qáweter hám qorqıw sezimi páseyedi.

Quwırshaq teatrınıń psixologiyalıq qorǵanıw mexanizmleri hám refleksiya. Quwırshaq teatrı balalardıń psixologiyalıq qorǵanıw mexanizmlerin jumsaqtıw hám qorqıwların sırtqa shıǵarıw (eksteriorizaciya) ushın eń qolaylı ortalıq jaratadı. Balalar quwırshaq penen oynaǵan waqıtta oǵan óziniń sezimlerin, sonday-aq qorqıw hám úmítsizliklerin júkleydi, bul process psixologiyada "proekciya" dep ataladı.

Tómende quwırshaq teatrınıń balalar ruwxıyatına tásir etiwi boyınsha qosımsha psixologiyalıq hám ámeliy mexanizmler keltirilgen:

Psixologiyalıq "qorǵawshı qalqan": Quwırshaq bala ushın bir psixologiyalıq "qorǵawshı qalqan" wazıypasın atqaradı. Saxnada qorqıp atırǵan bala emes, al quwırshaqtıń ózi bolıp kórinedi, al bala onıń atınan sóylep, mashqalanı sınaqtan ótkeredi. Balalar ózleriniń qorqıwların yamasa ishki keshirmelerin tuwrıdan-tuwrı aytıp beriwi qıyın bolıwı múmkin, bıraq quwırshaq arqalı bul processti ámelge asırıw ańsatlasadı. Quwırshaq balanıń ózine aytıwǵa qıyın bolǵan awır keshirmelerin sáwlelendiriwshi quralǵa aylanadı. Bala quwırshaq arqalı

mashqalanı sırtınan baqlaydı, oǵan sheshim tabadı hám qorqıwların qáwipsiz, oyın túrinde jeńip ótedi.

Kútilmegen jaǵdaylarǵa tayarlıq: Teatr hám quwırshaqlar menen islesiw arqalı balalar qorqıw yamasa uyalıw sezimlerin jeńedi hám kútilmegen jaǵdaylarda shaqqanlıq penen háreket etiwge úyrenedi. Saxnadaǵı qaharmanlardıń qorqıwlardı qanday jeńip atırǵanın baqlaw yamasa olardı atqarıw balanı keleshekte ushırasıwı múmkin bolǵan mashqalalarǵa ruwxıy jaqtan tayarlaydı.

Ashıq sáwbet hám refleksiya: Qorqıwlardı jeńiwde tek ǵana oyın procesiniń ózi emes, bálki mektep hám teatr baylanısın bekkemlew de áhmiyetli. Balalardı turaqlı túrde quwırshaq teatrlarına alıp barıw hám tamashadan keyin qaharmanlardıń háreketleri, sociallıq normalarǵa boysınıwı, qıyınshılıqları yamasa quwanıshları boyınsha oqıwshılar menen ashıq sáwbet (refleksiya) ótkiziw júdá paydalı. Bul process olardıń baqlaw arqalı empatiyasın , sonday-aq jámiyetlik qaǵıydalardı ańlawın bekkemleydi.

Quwırshaq teatrı baslawısh klass oqıwshılarında ushırasatuǵın sociallıq hám psixologiyalıq qorqıwlardı jeńiwdiń eń nátiyjeli qurallarınıń biri bolıp tabıladı. Quwırshaq bala ushın bir psixologiyalıq "qorǵawshı qalqan" wazıypasın atqaradı. Bul pedagogikalıq hám psixologiyalıq metod balanıń ózine bolǵan isenimin qaytarıwǵa hám jámiyetke ańsat biyimlesiwine járdem beredi [3.112].

Baslawısh bilimlendiriwde hám tárbiya procesinde quwırshaq teatrınan nátiyjeli paydalanıw boyınsha tómendegi ámeliy usınıslardı beriwimiz múmkin:

-Sabaq procesinde quwırshaq elementlerin qollanıw: Oqıw, ana tili yamasa tárbiya sabaqlarında balalarǵa qátelesiwden qorqıw yamasa uyalıw sezimlerin jeńillik penen ańlatıw ushın qol quwırshaqlarınan paydalanıw. Balalar juwaptı óz atınan emes, quwırshaqtıń atınan bergeni maqsetke muwapıq boladı.

-Art-terapiya hám quwırshaq dógereklerin shólkemlestiriw: Mekteplerde balalardıń ishki keshirmelerin sırtqa shıǵarıwǵa (eksteriorizaciya) qaratılǵan quwırshaq teatrı dógereklerin ashıw. Bul jerde balalar tek roldi atqarıp ǵana qoymay, quwırshaqlardı ózleri jasaw arqalı da tınıshlanıw hám qorqıwların jónge salıw kónlikpelerin iyeleydi [9.64].

-Ashıq sáwbet hám refleksiya: Balalardı turaqlı túrde quwırshaq teatrlarına alıp barıw hám tamashadan keyin qaharmanlardıń háreketleri, sociallıq normalarǵa boysınıwı, qıyınshılıqları yamasa quwanıshları boyınsha oqıwshılar menen ashıq sáwbet (refleksiya) ótkiziw júdá paydalı. Bul baqlaw hám talqılaw arqalı olardıń sanasın qorqıwlarǵa qarsı immunitetin bekkemleydi.

Ulıwma alǵanda, quwırshaq teatrı balalar ushın tek ǵana kewil kóteriwshi tamasha emes, bálki olardıń ruwxıy jaqtan jetik, isenimli hám keleshekte túrli mashqalalardı qorqpastan jeńip óte alatuǵın insan bolıp qáliplesiwine xızmet etiwshi áhmiyetli psixologiyalıq qural esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Bratton, S. C., Ray, D., Rhine, T., & Jones, L. (2005). The efficacy of play therapy with children. *InternationalJournalofPlayTherapy*, 14(2), 269–290.
2. Landreth, G. L. (2012). Play therapy: The art of the relationship. Routledge.
3. Медведева И. Я., Шишова Т. Л. Разноцветные белые вороны. (Куклотерапия). – М.: Семья и школа, 1996.

4. Смирнова Е. О. Межличностные отношения дошкольников и младших школьников. – М.: Владос, 2003.
5. Оклендер В. Окна в мир ребенка: Руководство по детской психотерапии. – М.: Класс, 1997.
6. Татаринцева А. Ю. Куклотерапия в работе психолога, педагога и логопеда. – СПб.: Речь, 2006.
7. Захаров А. И. Дневные и ночные страхи у детей. – СПб.: Речь, 2004.
8. Зинкевич-Евстигнеева Т. Д. Практикум по сказкотерапии. – СПб.: Речь, 2000.
9. Шишова Т. Л. Страхи — это серьезно. Как помочь ребенку избавиться от страхов. – М.: Искатель, 1997.

INGLIZ TILINI O‘QITISH METODLARINING EVOLYUTSIYASI VA ULARNING ZAMONAVIY RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN INTEGRATSIYASI (SPEAKING KO‘NIKMASI MISOLIDA)

Jamalova Ummihabiba Nurullaevna
Innovatsion texnologiyalar universiteti

Til oqitish metodlari tarixiy rivojlanish jarayonida turli nazariy yondashuvlar asosida shakllangan bolib, ularning har biri tilni organish jarayoniga turlicha tasir korsatgan. Dastlabki yondashuvlar tilni struktur tizim sifatida korib, grammatika va tarjimaga asoslangan bolsa, keyinchalik tilni kommunikativvosita sifatida organish zarurati paydo boldi. Bu esa metodlarning evolyutsiyasini yuzaga keltirdi [Richards & Rodgers, 2001].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni korsatadiki, bugungi kunda til oqitishda asosiy muammo talabalar tilni nazariy jihatdan bilishi, ammo uni real kommunikativ vaziyatlarda qollay olmasligidir. Bu holat psixologik (anxiety), kognitiv (idea generation) va lingvistik (active vocabulary yetishmasligi) omillar bilan bogliq.

Raqamli texnologiyalar bu muammoni hal qilishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Haleem va boshqalar takidlaganidek, raqamli platformalar talimni interaktiv, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan jarayonga aylantiradi, bu esa talabalar faolligini oshiradi va organish samaradorligini kuchaytiradi [Haleem et al., 2022].

Til oqitish metodlarining rivojlanishi didaktik qarashlarning orgarishi bilan bogliq. Grammar-Translation metodida til organish asosan grammatika qoidalarini yodlash va tarjima qilishga asoslangan bolib, bu yondashuv oquvchilarda passiv bilimni shakllantirgan. Natijada talabalar tilni tushunishi mumkin bolsa-da, uni ogzaki nutqda qollashda qiynalgan.

Direct Method esa tilni tabiiy muhitga yaqinlashtirib, tarjimasiz organishni ilgari surdi. Bu metod tilni intuitiv ozlashtirishga yordam berdi, ammo tizimli grammatika yetishmasligi sababli cheklangan edi.

